

“HAMKORBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING JISMONIY SHAXSLARGA MASOFADAN HAMDA BANK TARMOQLARIGA SHAXSAN TASHRIF BUYURGAN MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDAGI OMMAVIY OFERTASI

Ushbu ommaviy ofertada “Hamkorbank” ATB (bundan keyin – “Bank”) tomonidan jismoniy shaxslarga barcha masofaviy hamda bank tarmoqlariga shaxsan tashrif buyurgan mijozlar uchun xizmatlarni ko‘rsatish, jumladan onlayn mikroqarz, debet kartasining emissiyasi, shuningdek “Hamkor” va “Hamkor Mobile” mobil ilovalaridan foydalanish haqidagi Shartnomaning umumiy shartlari mavjud (bundan keyin– “Oferta”). Ushbu ofertada ko‘rsatilgan shartlarni qabul qilishi Mijozning ushbu Ofertada belgilangan shartlar, tartib va hajmda Shartnoma tuzishga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi. Ushbu oferta shartlari Mijoz tomonidan to‘liq qabul qilingandan so‘ng, agar bu ofertaning ilovalarida shunday qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, Mijoz Bank bilan har bir alohida mahsulot uchun xizmat ko‘rsatishning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuv tuzish majburiyatini oladi. Ushbu Oferta va uning asosida tuzilgan, xizmat ko‘rsatishning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuv (bundan keyin – “Kelishuv”) birgalikda yagona Shartnomani tashkil etadi. Ofertaning quyida bayon etilgan matni Bankning masofaviy xizmatlaridan foydalanish istagida bo‘lgan barcha jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzishga rasmiy taklifni tashkil qiladi (yoxud taklif hisoblanadi). Ofertaning quyida bayon etilgan matni Bankning masofaviy xizmatlaridan – rasmiy ommaviy ofertadan foydalanishni, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq Shartnoma tuzishni xoxlovchi barcha jismoniy shaxslarga yo‘naltirilgan.

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Abonent raqami – Mijoz tomonidan mijoz so‘rovnomasi/individual so‘rovnoma/ariza-anketada va Bank tomonidan belgilangan shakllarda tuzilgan boshqa hujjatlarda ko‘rsatiladigan, Bankning ma’lumotlar bazasida ro‘yxatdan o‘tkaziladigan, bank tomonidan mijozga Shartnoma doirasida xabarlar va bildirishnomalar, SMS-xabarlar, Shartnomada belgilangan hollarda bir martalik parollarni yuborish, hamda Mobil Bankni ulash uchun zarur bo‘lgan uyali telefon raqami. Mijoz o‘zi ko‘rsatgan uyali telefon raqami unga tegishli ekanligiga va faqat Mijozning o‘zi tomonidan shaxsan foydalanilishiga kafolat beradi.

Abonent uskunasi (Mobil qurilma) – bank yoki Mijoz tomonidan xabarlarni qabul qilish yoki uzatish uchun shaxsiy kompyuter, smartfon, telefon apparati yoki elektr aloqasining (ma’lumotlar uzatish) liniyalariga ulangan boshqa qurilma.

Avtorizatsiya – jismoniy shaxsga muayyan harakatlarni amalga oshirish huquqini berish, shuningdek, ushbu harakatlarni amalga oshirishga urinishda ushbu huquqlarni tekshirish (tasdiqlash) jarayoni.

Autentifikatsiya – Mijozning Shartnoma bo‘yicha bankning barcha xizmatlaridan foydalanish uchun Bankka murojaat qilishining qonuniyligini tasdiqlash.

Autentifikatsiya ma'lumotlari – kirish va amaliyotlarni bajarish, jumladan bankomat orqali kartadan, Bankning mobil ilovasi, vab ilovasi va/yoki Internetdagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari hamda uyali aloqa kanallaridan foydalangan holda amaliyotlarni bajarish uchun foydalaniladigan kirish kodi va boshqa ma'lumotlar. Autentifikatsion ma'lumotlar Mijozning o'z imzosining (oddiy elektron imzo) analogi hisoblanadi.

Bank – “Hamkorbank” ATBning bosh ofisi (170119, Andijon, Bobur shohko'chasi, 85-uy) va uning tarmoqlari.

Bank kartasi (BK) – bank tomonidan chiqarilgan, shaxsiylashtirilgan, to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan va uning egasiga bank hisobraqamidagi mablag'lar doirasida amaliyotlarni, jumladan naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to'lovlarni) hisobraqam orqali amalga oshirishga va naqd pullarni milliy (yoki xalqaro) valyutada yechib olishga imkon beradigan amaldagi karta.

Bankomat – naqd pullarni avtomatlashtirilgan tarzda yechib olish (Bankning vakolatli shaxsi yoki bank hamkorining ishtirokisiz), naqd pul mablag'lari bilan to'ldirish, jumladan Kartadan foydalangan holda (jumladan begona bankning), shuningdek Bankning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan taqdirda boshqa amaliyotlarni bajarish uchun mo'ljallangan dasturiy-texnik kompleks.

Verifikatsiya qilish – Mijozning Shartnoma bo'yicha bank amaliyotlari va boshqa harakatlarni amalga oshirish va/yoki hisobraqam bo'yicha, jumladan bank kartalari bo'yicha Shartnomada nazarda tutilgan tartibda ma'lumotlarni olish uchun Bankka murojaat qilganda uning shaxsini aniqlash.

Virtual token – avtomatik tarzda yaratiladigan, Bank tomonidan mijozning mobil qurilmasiga yuboriladigan va Shartnomada belgilangan tartibda foydalaniladigan ramzlar (timsollar) qatoridir. Virtual tokenning amal qilish muddati Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Ko'chirma – hisob-kitob davrida amalga oshirilgan moliyaviy amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan hisoblangan komissiyalar, to'lovlar, foizlar, joriy qarzlarni, hamda zarurat bo'lganda qarzdorlikni to'lash to'g'risidagi talab va minimal va/yoki doimiy to'lovning summasi va to'lash muddati, shuningdek shartnoma bo'yicha (bankning ixtiyoriga ko'ra) bank tomonidan mijozga taqdim etiladigan boshqa ma'lumotlar.

Vab ilova - bu Bankka tegishli bo'lgan, vab-texnologiyalar asosida yaratilgan, maxsus dasturiy ta'minot bo'lib, bank operatsiyalarini amalga oshirish hamda masofaviy aloqa kanallari orqali boshqa ma'lumotlarni olish uchun mo'ljallangan.

Debet kartasi – mijozning Bank hisobraqami bilan bog'langan bank kartasi, ushbu karta mijozga to'lovlarni amalga oshirish va ushbu hisobraqamdan naqd pullarni yechib olish, shuningdek, boshqa moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish imkonini beradi. To'lovlarni amalga oshirish va naqd pullarni yechib olish uchun pullar bevosita mijozning hisobraqamidan kelib tushadi.

Masofaviy bank xizmatlari (MBX) – Mijoz tomonidan uzoqlashgan usulda telekommunikatsiya tizimlari (bankomat, telefon bo'yicha Bankning aloqa markazi va/yoki Bankning Internet tarmog'idagi sayti va/yoki Bankning mobil ilovasi, vab ilovasi va/yoki Internetdagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, jumladan, elektron pochta va telegram botlari va/yoki uyali aloqa

kanallari, jumladan SMS xabarlar va Push-xabarnomalar) yordamida masofadan uzatiladigan elektron farmoyishlari asosida taqdim etiladigan Bank xizmatlari kompleksi (autentifikatsion ma'lumotlar va/yoki kirish kodlaridan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirish va/yoki mijozning arizalarini ishlash va/yoki xabarlar va ma'lumotlarni taqdim etish va/yoki almashish, jumladan mijoz va bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha).

Qarzdorlik – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha Mijoz tomonidan Bankka to'lanishi lozim bo'lgan barcha pul mablag'lari, shuningdek Mijoz foydasiga noto'g'ri hisoblangan pul mablag'lari va Mijoz tomonidan qaytarilishi lozim bo'lgan, o'z ichiga kredit miqdori, kredit mahsulotidan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, shuningdek, qo'llaniladigan Tariflarga muvofiq jarimalarni o'z ichiga oluvchi pul mablag'lari.

Ariza – mijozning Bank bilan shartnoma tuzish maqsadini va tegishli kelishuvning barcha muhim shartlarini yoki ularni belgilash tartibini o'z ichiga olgan, Bank nomiga yozma yoki elektron taklifi (ofertasi, buyurtnomasi).

Identifikatsiya parametrlari – mijozning tizimlarda ro'yxatdan o'tkazilgan va mijozni tizimlarda ishlashi uchun autentifikatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan mijozning abonent raqami va maxfiy kodi.

Mijoz – Tizimlarga ulangan, Ommaviy oferta shartlariga o'z roziligi bilan qo'shilgan jismoniy shaxs.

Mijozlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridir. Rezident tushunchasi doirasiga kirmaydigan shaxslar O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridir.

Maxfiy so'z – bank tizimida foydalanuvchining shaxsini identifikatsiya qilish yoki autentifikatsiya qilish yoki maxfiy ma'lumotlarga kirishni yoki muayyan harakatlarni bajarishni talab etadigan boshqa amaliyotlarni amalga oshirishda foydalaniladigan maxfiy ibora yoki ramzlar (timsollar) kombinatsiyasi.

Komprometatsiya – autentifikatsiya qilishda identifikatsiya parametrlarini yo'qotish, autentifikatsiya qilishda identifikatsiya parametrlariga shubha qilish yoki uchinchi shaxslarning mijozning identifikatsion parametrlariga kirishi paytida shubha qilish.

“Hamkor” va “Hamkor Mobile” mobil ilovalari (quyida – Mobil ilova) – mobil texnologiyalar asosida shakllantirilgan, Bankka tegishli ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot bo'lib, bank amaliyotlarini amalga oshirish, hisobraqamlar holati to'g'risidagi ma'lumotlarni va boshqa ma'lumotlarni onlayn rejimida olish uchun mo'ljallangan.

Shaxsiy ma'lumotlarni ishlash – «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni doirasida shaxs roziligi bilan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish,

saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilish bo'yicha bir yoki bir necha harakatlar majmuasini amalga oshirish.

Amaliyot kuni – mijozlarning pul mablag'larini hisobga olish, hisobdan chiqarish, o'tkazish bo'yicha amaliyotlar va boshqa bank amaliyotlari va bitimlarni amalga oshiriladigan vaqt.

Hamkorlar – O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va Bank mijozlariga yuborilgan pul mablag'larini qabul qilish va berish to'g'risida Bank bilan shartnoma tuzgan tashkilot, myaccaca va идоралар.

PIN-kod – har bir kartaga individual tartibda tayinlanadigan, karta egasining shaxsiy imzosining analogi bo'lgan BK egasining maxfiy shaxsiy identifikatsion raqami. Khdagi pul mablag'larini tasarruf etish va BK egasi tomonidan pul mablag'larini tasarruf etish uchun ruxsat berish huquqini tasdiqlaydi.

Potensial mijoz – bank mahsuloti yoki xizmatlariga qiziqish bildirgan, lekin hisobraqam ochish yoki boshqa shartnomalar tuzish orqali hali mijozga aylanmagan shaxs.

Oddiy elektron imzo – mijozning SMS-xabarnoma orqali yuborilgan maxsus kodni kiritish, rozilik belgisini qo'yish (belgilash), mijozning to'liq va so'zsiz roziligini bildiruvchi maxsus tugmachalarni bosish bo'yicha harakatlari, ushbu harakatlar shaxsiy imzoning analogi va mijozning Shartnoma tuzish yoki o'z nomidan yoki muayyan harakatni amalga oshirish istagining ifodasi hisoblanadi.

To'lov tizimlari – mobil ilovada mavjud bo'lgan Yagona umumrespublika protsessing markazi, Milliy banklararo protsessing markazi, VISA, UnionPay, Mastercard, Paynet, MUNIS va boshqa to'lov tizimlari.

Ommaviy oferta – Bank tomonidan jismoniy shaxslarga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi Shartnoma shartlarini o'z ichiga olgan, tizimlarda va Bankning korporativ veb-saytida joylashtirilishi lozim bo'lgan hujjat.

Ro'yxatdan o'tkazish – Mijozning Tizimlarga autentifikatsiya qilish va identifikatsion ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha harakatlari, bu harakatlar Mijozning ommaviy ofertani qabul qilganlik faktini aniqlash/tasdiqlash imkonini beradi. Ro'yxatdan o'tkazish tartibi bank tomonidan belgilanadi.

Maxfiy kod – Mijoz tomonidan Mobil ilovada yoki/va veb ilovada muvaffaqiyatli verifikatsiya va autentifikatsiya qilishdan so'ng o'zining mobil ilovasida yoki/va veb ilovasida mustaqil ravishda yaratilgan, faqat mijozga ma'lum bo'lgan maxfiy kod (raqamli – 4 tadan 8 tagacha). Mijoz mobil ilova o'rnatilgan mobil qurilmalariga bir xil yoki turli xil Maxfiy kodlarni tayinlashi mumkin.

Tizimlar (Xizmatlar) – Bankning mijozlarga masofaviy bank xizmatlarini taqdim etadigan dasturlar kompleksi.

Bank hisobraqami (karta hisobraqami) – mijoz tomonidan bankda ochilgan bank hisobraqami (BH) bo'lib, unda mijoz tomonidan uning topshiriqlariga muvofiq amalga oshirilgan

amaliyotlar, jumladan bank tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyot aks etadi. Noaniqliklarni istisno qilish maqsadida, ushbu kontekstda “Hisobraqam” atamasi ostida milliy va xorijiy valyutada taqdim etilgan har qanday bank mahsuloti, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, talab qilib olgunga qadar hisobraqami, karta hisobraqami, muddatli depozit hisobraqami, ssuda hisobraqami va boshqalar tushuniladi.

Tarif rejasi – Shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan bank xizmat xaqqlarini o‘z ichiga olgan hujjat.

Tariflar – Bank tomonidan tasdiqlangan va tegishli amaliyotni bajarish vaqtida amalda bo‘lgan, Bankning ko‘rsatilayotgan Xizmatlar uchun belgilangan bank xizmat xaqqlari.

Xizmatlar – Bank amaliyotlariga imkon beruvchi masofaviy bank tizimlaridan foydalanilgan holda ko‘rsatiladigan xizmatlar.

Elektron hujjat – elektron shaklda, ya’ni inson tomonidan elektron hisoblash mashinalaridan foydalangan holda, qabul qilishga yaroqli elektron shaklda taqdim etilgan, hamda axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatish yoki axborot tizimlarida ishlash uchun qog‘oz tashuvchida avvaldan hujjatlashtirib olinmagan hujjatlashtirilgan ma’lumotlar. Elektron hujjatlar Bankning axborot tizimlarida elektron shaklda saqlanadi. Shartnomada Elektron hujjatlar deganda ham mijozning oddiy elektron imzosi bilan imzolanadigan alohida elektron hujjat, ham mijozning bitta oddiy elektron imzosi bilan imzolanadigan elektron hujjatlar to‘plami tushuniladi. Elektron hujjatlarning paketini mijozning bitta oddiy elektron imzosi bilan imzolashda har bir elektron hujjat mijozning oddiy elektron imzosi bilan imzolangan hisoblanadi.

Face ID – jismoniy shaxs yuzining hajmli-fazoviy shaklini mobil qurilmaga o‘rnatilgan skanerda skanerlash vositasi orqali identifikatsiya qilish funksiyasi.

Push-xabarnoma – Bank tomonidan Internet tarmog‘i orqali mijozning abonent qurilmasiga uskunasi Mobil Bank va/yoki Bankning mobil ilovasi yordamida uzatiladigan ma’lumotlar.

Touch ID – barmoq izlarini mobil qurilmaga o‘rnatilgan skanerda skanerlash vositasida Mijozni identifikatsiya qilish funksiyasi.

Individual shartlar bo‘yicha Kelishuv (keyingi o‘rinlarda – "Kelishuv") – ushbu Oferta asosida tuziladigan alohida Kelishuv. Kelishuv ushbu Ofertada qayd etilgan umumiy shartlarda ko‘zda tutilmagan xizmatlar ko‘rsatishning individual shartlarini nazarda tutadi. Individual kelishuv imzolanganidan so‘ng, u mazkur ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi va birgalikda yagona shartnomani tashkil etadi (keyingi o‘rinlarda ushbu Oferta shartlari va uning asosida tuzilgan individual shartlar bo‘yicha Shartnoma "Shartnoma" deb yuritiladi).

2. UMUMIY SHARTLAR

2.1. Shartnoma doirasida Bank Mijozga ushbu Oferta shartlariga muvofiq alohida kelishuvlar tuzish imkoniyatini beradi.

2.2. Agar Kelishuvlarning biror-bir qoidasi ushbu Ommaviy ofertaning tegishli shartlari bilan belgilangan qoidalarga zid bo‘lsa, Ommaviy oferta shartlarida o‘rnatilgan qoidalar qo‘llaniladi.

2.3. Mijoz tomonidan Mobil ilovada yoki/va veb ilovada ro'yxatdan o'tish, verifikatsiya va autentifikatsiya qilish mijozning ushbu Ofertaning barcha shartlarini istisnosiz to'liq va so'zsiz qabul qilish tasdig'ini (aksept) anglatadi.

2.4. Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartlarini qabul qilish mijozga Mobil ilova orqali masofaviy xizmat ko'rsatish haqidagi Shartnomaning tuzilishi hisoblanadi. Buning uchun individual shartlarni nazarda tutuvchi Kelishuv tuzish talab etilmaydi.

2.5. Ushbu Ommaviy ofertaning biror-bir qoidasiga ozi bo'lmagan taqdirda yoki uning noaniqligi bo'lgan holatda, Mijozga uni qabul qilishdan bosh tortish va Bankning masofaviy xizmat ko'rsatish xizmatlaridan foydalanmaslik tavsiya etiladi.

2.6. Mijozga masofaviy bank xizmatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari va Shartnomaga muvofiq ko'rsatiladi.

2.7. Ommaviy oferta Mijozga ham qog'ozda, ham ular bilan Bankning hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida, hamda Mobil ilovasida tanishishni taklif qilish yo'li bilan taqdim etilishi mumkin.

2.8. Bank, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Mijozga xizmat ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunda Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlar so'rashga haqli.

2.9. Ushbu Oferta doirasida alohida Kelishuvlar tuzish uchun Mijoz Bankka rasmiylashtirilgan, jumladan Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish kanallari orqali Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda va/yoki ushbu Shartlarda belgilangan tartibda oddiy elektron imzo bilan imzolangan Arizani bankka taqdim etadi. Arizani rasmiylashtirishda mijoz tomonidan autentifikatsion ma'lumotlarni kiritish (Bankka xabar qilish) va/yoki oddiy elektron imzo bilan imzolangan arizani bankka taqdim etish mijozning Arizada ko'rsatilgan shartlarda va Ofertaning tegishli shartlarida Bank va Mijoz o'rtasida Kelishuvni tuzish to'g'risidagi taklifini (ofertani) anglatadi.

2.10. Mijoz skoringli tahlildan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda, agar bunday tahlil ushbu Ofertaga bo'lgan tegishli Ilovada talab etilsahamda Bank mijozning arizasini qabul qilgan taqdirda, xizmatlar ko'rsatishning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuv tuzilgan hisoblanadi.

2.11. Zarurat bo'lganda, Bank Mijozga kelishmovchiliklar bayonnomasini yuborish huquqini o'zida saqlab qoladiki, bu bank tomonidan kelishuv tuzish taklifi (oferta) hisoblanadi.

2.12. Mijoz kelishmovchiliklar bayonnomasi shartlarini qabul qilganda Kelishuv tuzilgan hisoblanadi.

2.13. Shartnoma tuzish bilan Mijoz o'zining Bankda ochilgan barcha hisobraqamlariga nisbatan farmoyishlarini bajarish uchun Bankka rozilik beradi.

2.14. Tariflar:

2.14.1. Mijozlarni Shartlar (Umumiy shartlar) va tariflar bilan tanishtirish maqsadida Bank Shartlar va tariflar (tarif rejalari), Tariflarni qo'llash qoidalari, shuningdek o'tkazmalar, to'lovlar va qo'shimcha xizmatlar bo'yicha tariflarni Bankning Internet tarmog'idagi hamkorbank.uz saytida e'lon qilib boradi. Tarif rejasining shartlari shuningdek, ularni individual shartlarni nazarda tutuvchi kelishuvlar shartlariga kiritish orqali mijozning e'tiboriga yetkazilishi/taqdim etilishi mumkin. Qo'shimcha ravishda bank mijozni mijozning ma'lumot olish va ushbu ma'lumot Bankdan kelayotganini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usullar bilan xabardor qilishi mumkin. Ko'rsatilgan ma'lumotlarning e'lon qilingan sanasi deb ularni Bankning Internet tarmog'idagi hamkorbank.uz saytida birinchi marta joylashtirish sanasi hisoblanadi.

2.14.2. Shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran Tarif rejasi qo'llaniladi, ushbu reja Shartnoma tuzilgunga qadar mijozga shaxsan yoki Masofaviy bank xizmatlari tizimlari bilan nazarda tutilgan aloqa kanallari orqali uzatiladi. Tarif rejasida mavjud bo'lgan ma'lumotlar Bank tomonidan Shartnomaning individual shartlari bo'yicha kelishuvga kiritilishi mumkin, ular mijozga onlayn mikroqarz shartnomasini tuzishdan va/yoki debet kartasini rasmiylashtirishdan oldin topshiriladi. Shartnomaning amal qilish davrida, Mijozning arizasiga ko'ra va Bankning roziligi bilan Shartnoma doirasida qo'llaniladigan Tarif rejasi boshqa Tarif rejasiga o'zgartirilishi mumkin. Kredit bo'yicha foiz stavkasini pasaytirish va/yoki xizmat ko'rsatishning boshqa shartlarini yaxshilash maqsadida, agar bu mijozning yangi pul majburiyatlarini yuzaga keltirmasa va mavjudlari miqdorining oshishiga olib kelmasa, shuningdek Shartnoma bo'yicha to'lovlar, jarimalarni undirishni kamaytirishga yoki to'xtatishga imkon bersa, Bank bu haqda mijozni masofaviy bank xizmatlari orqali uzgartirishlar kiritilgan kundan kechiktirmagan holda xabardor qilgan holda, Shartnoma doirasida qo'llaniladigan Tarif rejasini bir tomonlama tartibda, jumladan shartnomani tuzishda va/yoki muayyan vaqt davriga o'zgartirishga va/yoki uni boshqa tarif rejasiga almashtirishga haqlidir.

2.14.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmasa, Bank mijozga tegishli xabarnomani masofaviy xizmat ko'rsatish vositasida 1 kundan kechiktirmiy yuborib yoki bu haqdagi ma'lumotlarni Bankning internet tarmog'idagi hamkorbank.uz veb-saytiga joylashtirish orqali Ofertaning ushbu shartlariga va/yoki tariflarga (tarif rejalari) bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqlidir. Bank tomonidan ushbu Ofertaga bir tomonlama tartibda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar qonuniy kuchga kiradi va mijoz tomonidan bunday o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar to'g'risida mijozga xabar qilingan kundan boshlab 10 kun o'tgandan so'ng qabul qilingan deb hisoblanadi. O'zgarishlarni e'lon qilish Bankning internetdagi veb-sayti hamkorbank.uz manzilida, shuningdek Mobil ilova orqali e'lon qilinadi.

2.15. Mijoz tomonidan amalga oshirilishiga rozilik berilgan Mijozning va bankning farmoyishlarini bajarish maqsadida hisob-kitob (to'lov) hujjatlarini bank rasmiylashtiradi.

2.16. Oddiy elektron imzodan foydalanish:

2.16.1. Elektron hujjatdagi (bir nechta o'zaro bog'langan elektron hujjatlar) oddiy elektron imzo mijozning roziligini/qabul qilinganligini akseptini ifodalash uchun, jumladan arizani, hamda

shartnomaning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuvni elektron shaklda imzolash, bank bilan Shartnoma va/yoki boshqa kelishuvlar tuzish uchun qo'llanilishi mumkin. Mijoz tomonidan oddiy elektron imzo bilan imzolanishi mumkin bo'lgan elektron hujjatlar ro'yxati bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

2.16.2. Oddiy elektron imzo, mijoz tomonidan oddiy elektron imzo kalitidan foydalangan holda hujjatning elektron ko'rinishda shakllanganlik va imzolanganlik faktini tasdiqlaydi. Oddiy elektron imzo kaliti – bu Bank tomonidan yaratilgan, Bank tomonidan Mijozning Abonent raqamiga va/yoki abonent qurilmasiga Mijozni Autentifikatsiya qilgandan so'ng, jumladan mijoz tomonidan autentifikatsion ma'lumotlarni masofaviy bank xizmati orqali to'g'ri kiritilganligi yoki Mijoz tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganligi faktini aniqlash vositasida yuboriladigan bir martalik harfli-raqamli koddir (keyingi o'rinlarda – “bir martalik kod”).

2.16.3. Agar Bank tomonidan Abonent raqami va/yoki abonent qurilmasiga yuborilgan xabardagi bir martalik kod va/yoki Kirish kodi Mijoz tomonidan kiritilgan va/yoki taqdim etilgan bir martalik kodga va/yoki kirish kodiga mos kelsa, uning amal qilish vaqti tugamagan bo'lsa va/yoki Mijoz o'zining autentifikatsion ma'lumotlarini to'g'ri kiritgan (taqdim etgan) taqdirda elektron hujjat mijoz tomonidan oddiy elektron imzo bilan imzolangan hisoblanadi. Mijoz tomonidan oddiy elektron imzo bilan imzolangan hujjatlar Mijozning o'z imzosi bilan imzolangan qog'oz tashuvchidagi hujjatlarga teng deb e'tirof etiladi.

2.16.4. Oddiy elektron imzoni tekshirish Bank tomonidan uning dasturiy-texnik va boshqa vositalaridan foydalangan holda, Mijoz tomonidan Masofaviy xizmat ko'rsatish orqali yoki Bankka va/yoki Bank vakiliga, jumladan Bankning aloqa markaziga va/yoki Bankning hamkoriga oddiy elektron imzoning to'g'ri kalitini kiritish faktini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Oddiy elektron imzoni tekshirish natijasi salbiy bo'lgan taqdirda Bank mijozga elektron hujjatni qabul qilishni rad etadi. Mijoz tomonidan elektron hujjat yaratilganligi, imzolanganligi va Bankka yuborilganligi fakti, shuningdek Bankning Mijozning Oddiy elektron imzosini tekshirishi va boshqa hatti-harakatlari bank tomonidan elektron jurnallarda qayd etiladi va saqlanadi. Bankning elektron jurnallaridan ko'chirmalar va log-fayllar (ya'ni, dasturiy va texnik vositalar yordamida yaratilgan, Mijoz tomonidan masofaviy bank xizmatlari orqali amalga oshirilgan harakatlar va hodisalarni qayd etuvchi hisobotlar) nizoli vaziyatlarni hal etishda davlat, sud organlari va boshqa tashkilotlarga taqdim etish uchun, mijozga bir martalik kodni va/yoki kirish kodini (agar qo'llashning imkoni bo'lsa) yuborganlikning isboti sifatida, mijoz tomonidan oddiy elektron imzodan foydalangan holda elektron hujjatni imzolash uchun, shuningdek elektron hujjat mazmunining isboti sifatida yetarlicha va yo'l qo'yiladigan (mumkin) hisoblanadi.

2.16.5. Mijoz oddiy elektron imzo kalitini sir saqlashi va hech qanday holatda uni uchinchi shaxslarga bermasligi shart. Kalitning maxfiyligi buzilgan yoki u yo'qolgan taqdirda, Mijoz uni o'zgartirish uchun bu haqda darhol Bankni xabardor qilishi mabrat lozim. Ushbu bandeda ko'rsatilgan holatlar to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu holatlardan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

2.16.6. Mijoz tomonidan oddiy elektron imzo bilan imzolangan hujjatlar bank tomonidan elektron ko'rinishda saqlanadi va mijozga masofaviy bank xizmatlari orqali yoki mijozning bankka taqdim

etgan elektron pochta manziliga jo‘natish yo‘li bilan taqdim etiladi, hamda mijozning so‘roviga ko‘ra mijozga istalgan vaqtda qog‘oz tashuvchida ham yuborilishi mumkin.

2.16.7. Bankka, jumladan, Bankning aloqa markaziga Abonent raqami va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma’lumotlarini yoki o‘zining familiyasi, ismi va otasining ismini taqdim etgan potensial mijoz Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartlari (jumladan, arizada) qabul qilingan paytdan e’tiboran va/yoki ko‘rsatilgan ma’lumotlarni Bankka va/yoki bankning vakiliga, jumladan Bankning aloqa markaziga taqdim etgan paytdan e’tiboran mijozning o‘z huquqiy irodasini potensial mijoz tomonidan Ommaviy ofertaning 2.14. bandining shartlariga muvofiq hujjatlarni elektron ko‘rinishda shakllantirish va imzolash faktini tasdiqlovchi oddiy elektron imzo vositasida amalga oshirishga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi.

2.17. Arizada va/yoki Shartnomaning individual shartlari to‘g‘risidagi Kelishuvda mavjud bo‘lgan shartlar Bank bilan kelishilgan holda, jumladan masofaviy bank xizmatlari orqali o‘zgartirilishi mumkin. O‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Mijoz e’tiboriga masofaviy xizmat orqali yetkaziladi.

2.18. Ommaviy oferta va har bir kelishuv alohida-alohida holda, o‘z tuzilmasida bank tomonidan alohida xizmatlar ko‘rsatish va alohida xizmatlarni taqdim etishning qoidalari va tartibini belgilovchi, bunday kelishuvlarning ajralmas qismi bo‘lgan ilovalar, qoidalar va boshqa hujjatlarga ega bo‘lishi mumkin.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

3.1.1. Mijoz bilan bog‘liq har qanday ma’lumotning maxfiyligini saqlash. Tizimdan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar Bank tomonidan uchinchi shaxslarga faqat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.

3.1.2. Xizmatlarni lozim darajada, hajmda, Shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan muddatlarda ko‘rsatish.

3.1.3. Uchinchi shaxslarning Mijozning Hisobraqamlari va uning tomonidan Tizimlarda amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma’lumotlarga yetib borishining oldini olish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko‘rish.

3.1.4. Shaxsiy ma’lumotlarning butligi va xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlashning oldini olish.

3.1.5. Mijozning bank amaliyotlari va shaxsiy ma’lumotlarining maxfiyligiga rioya qilish. Bank tizimlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan tranzaksiyalar, hamda mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilishi mumkin.

3.1.6. Shartnomaning nusxasini Tizimlarda, Bankning korporativ veb-saytida va/yoki Bank ofislarida joylashtirish.

3.2. Mijoz quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

3.2.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish yoki bankning nufuzi uchun xavf va moliyaviy xavf tug'diruvchi amaliyotlarni o'tkazmaslik. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Bankning so'roviga asosan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni taqdim qilish.

3.2.2. Yashash joyi va/yoki pasport ma'lumotlari o'zgarganda, ismi va familiyasi o'zgargan holda, hamda karta yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, Bankni bu haqda zudlik bilan yozma ravishda va/yoki elektron shaklda xabardor qilish.

3.2.3. Bankka zarur va ishonchli ma'lumotlarni xabar qilish va hujjatlarni Bankning talablari va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq taqdim etish.

3.2.4. Mijoz bilan bog'lanish uchun Bankka ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish, ular o'zgargan taqdirda yangilangan ma'lumotni zudlik bilan taqdim etish. Bankning Mijozga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, Shartnomada nazarda tutilgan xabarnomalar, hamda boshqa, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan xabarlarni yuborish majburiyati bajarilgan, mijoz esa lozim darajada xabardor qilingan hisoblanadi, agar bunday xabarnomalar va xabarlar Bankda Mijoz bilan bog'lanish uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga muvofiq Masofaviy xizmat orqali yuborilganda, hamda bunday xabarnomalar va xabarlar Bankda mavjud bo'lgan mijozning manzillaridan biriga yuborilgan taqdirda.

3.2.5. Tizimlardagi va masofaviy bank xizmatlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligini Bank ofislarida, Bankning korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi yoki tizimlardagi rasmiy sahifalarida muntazam tekshirib borish.

3.2.6. Kirish kodlari, oddiy elektron imzo kaliti va autentifikatsiya ma'lumotlarining xavfsiz va maxfiy saqlanishini ta'minlash. Mobil ilova yoki/va veb ilova orqali xizmatlarni olish uchun foydalaniladigan Mobil qurilmani uchinchi shaxslarga bermaslik. Komprometatsiya yuz bergan taqdirda, jumladan uchinchi shaxslar tomonidan kirishga imkon, kirish kodlari, oddiy elektron imzo kaliti va autentifikatsiya ma'lumotlari olinganda ularni o'zgartirish uchun zudlik bilan Bankka xabar berish.

3.2.7. Bank so'roviga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va ushbu Ommaviy ofertada (Umumiy qoidalarda) nazarda tutilgan hollarda hujjatlar va ma'lumotlarni, jumladan pul mablag'lari bilan amaliyotlar, Bank bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish maqsadlari va taxminiy xarakteri, moliyaviy-xo'jalik faoliyati maqsadlari, moliyaviy ahvoli, ishchanlik obro'si, mijozning pul mablag'lari manbalari va/yoki boshqa mulki haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

3.2.8. Abonent raqami va/yoki Abonent qurilmasini sir saqlash, hamda agar Umumiy shartlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Kartani uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik.

3.2.9. Bankning Mijozning roziligisiz pul mablag'larini o'tkazish amaliyotini takroran amalga oshirish xavfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalariga amal qilish.

3.2.10. Internet yoki aloqa vositalari orqali uzatilgan ma'lumotlar komrometatsiyasining ehtimoli bilan bog'liq xavflarni tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olish.

3.2.11. Mobil ilovaning ekraniga chiqariladigan ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganish, taklif qilingan variantlardan harakatlarni o'z maqsadlariga muvofiq tanlab olish va kiritilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligini yaxshilab tekshirish.

3.2.12. Mijoz bank mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan harakatlar, agar ular bankning mobil ilovasi yoki/va veb ilovasi orqali uchinchi shaxslarning yolg'on ko'rsatmalari asosida amalga oshirilgan bo'lsa va axborot xavfsizligi talablariga zid bo'lsa, shaxsan javobgar bo'ladi. Mijoz, shuningdek, ushbu harakatlar natijasida yuzaga keladigan bank oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni so'zsiz bajarish majburiyatini oladi.

3.2.13. O'z faoliyati bilan bog'liq bank operatsiyalarining xalqaro va milliy sanksiyalar talablariga muvofiqligini o'rganib borish.

3.2.14. Xalqaro va milliy sanksiya talablarini buzmaslik, qasddan chetlab o'tishga urinmaslik.

3.2.15. O'z faoliyati bilan bog'liq bank operatsiyalarining xalqaro va milliy sanksiyalar ta'siriga aloqadorligi aniqlanganda, bu to'g'risida bankka yozma ma'lumot taqdim qilish.

3.2.16. Masofaviy bank xizmatlari Tizimlarida belgilangan/qayd etilgan aloqa kanallari orqali Bankni Masofaviy bank xizmatlari tizimidagi texnik nosozliklar, shu jumladan Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini noto'g'ri kirim bo'lish holatlari to'g'risida xabardor qilish. Bunda, Mijoz, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vijdonli ishtirokchisi sifatida noto'g'ri hisoblangan pul mablag'larini tasarruf qilmasligi hamda bankka pulni qaytarishda har tomonlama yordam berish majburiyatini oladi.

3.2.17. Ushbu bilan Mijoz, o'zining barcha turdagi hisobvaraqlari qoldig'i bo'yicha, Bank tomonidan foizlar hisoblanmasligini/ va to'lanmasligini qabul qiladi va o'zining roziligini bildiradi, bunda Bankda ochilgan depozit hisobvaraqlari (omonatlar) bundan mustasno.

3.2.18. Mijoz (nerezident) O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketgan hollarda Bankni yozma ravishda yoki Aloqa markaziga telefon qo'ng'iroq orqali yoki internet aloqa kanallari orqali xabardor qilish.

3.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Mijozni, Mijozning vakilini identifikatsiya qilishda va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilashda mijozdan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish va ularni olish.

3.3.2. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va ushbu Ofertada (Umumiy shartlar) nazarda tutilgan hollarda mijozdan hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olish.

3.3.3. Mijoz bankka murojaat qilganda u bilan bo'lgan muzokaralarni yozib borish, hamda mijozga xizmat ko'rsatishning sifatini nazorat qilish maqsadida bunday murojaat faktini tasdiqlash uchun yozuvdan foydalanish.

3.3.4. Ushbu Shartnomada, Qoidalarda va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan asoslar bo'yicha, hamda Mijoz tomonidan Xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgan taqdirda Mijozga Xizmat ko'rsatishni rad etish.

3.3.5. Bank ushbu Ofertani bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Bank ushbu Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatishni tegishli e'lon Bankning saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda joylashtirilgan kundan e'tiboran 10 kun o'tgach bir tomonlama tartibda to'xtatishga haqli.

3.3.6. Ushbu Oferta asosida tuziladigan, xizmat ko'rsatishning individual shartlarini nazarda tutuvchi alohida Kelishuvlar bo'yicha Taraflar o'rtasida o'zaro majburiyatlar mavjud bo'lmagan taqdirda Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

Ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda taraflar o'rtasidagi Shartnoma taraflar o'rtasidagi barcha o'zaro majburiyatlar bajarilgan va hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so'ng, hamda taraflar o'rtasida o'zaro e'tirozlar mavjud bo'lmagan taqdirda bekor qilinadi.

3.3.7. Bank xizmat ko'rsatish shartlarini ham, ularning nomini ham bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqli.

3.3.8. Hisobraqamlarga yoki to'lovlarga ruxsatsiz kirishga urinish sodir bo'lgan yoki buning ehtimoli mavjud bo'lgan deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lganda Mijozni xabardor qilmasdan Mijozga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni vaqtinchalik to'xtatib turish.

3.3.9. Bankning tariflari komission mukofot miqdorining kamayishi tomonga o'zgargan taqdirda (mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratish), Bank ushbu o'zgarishlarni Tariflarga o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan keyingi kundan kechiktirmay va mijozni xabardor qilmasdan bir tomonlama tartibda qo'llashga haqli.

3.3.10. Ushbu bilan Mijoz, xatolik tufayli hisoblangan, jumladan uzilish (nosozlik) natijasida Mijozning hisobvaraqlariga hisoblangan/kelib tushgan mablag'larni, Mijozning ishtirokisiz barcha hisobvaraqlardan yechib olishga oldindan rozilik bildiradi.

3.3.11. Bank Mobil ilovasining funksionalligini, shuningdek, Mijoz tomonidan undan foydalangan holda amalga oshirilayotgan amaliyotlar hajmini mustaqil ravishda aniqlash.

3.3.12. Bank xizmatlari tariflarini ishlab chiqish, o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, ma'lumotlarni hamkorbank.uz saytida, hamda Bankning Mobil ilovasida joylashtirib borish.

3.3.13. Xizmat ko'rsatish uchun to'lovlarni (jumladan, naqd pul yechib olish va/yoki Bank kartasini to'ldirish, naqd pulsiz o'tkazmalar) hamkorbank.uz saytida joylashtirilgan Tariflar asosida olish.

3.3.14. Mijozning shaxsi shubha tug'dirgan taqdirda yoki Tizimlardan foydalangan holda amalga oshirilayotgan amaliyotlar qonunga zid bo'lsa yoki shaxsning identifikatsiyasini talab qilsa, xizmatlar taqdim etishni rad etish.

3.3.15. Milliy banklararo protsessing markazi tomonidan oddiy elektron imzodan foydalangan holda Avtorizatsiya qilish vaqtida o'tkazilayotgan amaliyotlarning noqonuniyligi aniqlangan yoki bunga shubha tug'ilgan taqdirda Mijozning kartalarini vaqtincha bloklash, oddiy elektron imzodan foydalangan holda Avtorizatsiya qilish vaqtida bloklangan kartaning vaqtinchalik bloklanishini yechish Mijozning Milliy banklararo protsessing markaziga (HUMO, Uzcard) murojaati asosida yoki taym-aut tugashi bilan mumkin bo'ladi. Mijoz Kartaning ehtimoliy vaqtincha bloklanishi haqida Avtorizatsiya vaqtida, qisman noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish paytida xabardor qilinadi.

3.3.16. Tizimdan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi texnik sabablar yoki boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda tizimdan foydalanishni bir tomonlama tartibda nomuayyan muddatga to'xtatib turish. Bunda Bank Mijozni yuzaga kelgan uzilish (nosozlik) va uni bartaraf etishning taxmin qilinayotgan muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bank ofislarida, Bankning korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda joylashtirish orqali xabardor qiladi.

3.3.17. Bankning servislaridan foydalangan holda mijozlarga xabar va ma'lumotlarni yuborish.

3.3.18. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

3.3.19. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq so'ralgan hujjat va ma'lumotlar taqdim qilinmaganda yoki jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida belgilangan boshqa xollarda mijoz bilan amaliy ish munosabatlariga kirishishni yoki mijozning operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish.

3.3.20. Mijoz yoki uning operatsiyalari xalqaro va milliy sanksiyalar ta'sir doirasiga tushganda, tushish havfi mavjud bo'lganda yoki xalqaro va milliy sanksiya ta'sir doirasiga tushishini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, amaliyotlarni rad etish.

3.3.21. Mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni kelib tushgan mablag' sanksiya va taqiqlardan xoli ekanligi aniqlangunga qadar vaqtincha alohida tranzit hisobvaraqda saqlash.

3.3.22. Mijoz yoki uning operatsiyalari sanksiya va taqiqlardan xoli ekanligi bo'yicha mustaqil ekspert yoki nufuzli konsalting kompaniyasi xulosasini talab qilish.

3.3.23. Masofaviy xizmatlarni ko'rsatish to'g'risida mijozlar bilan imzolanadigan shartnomalarda mijoz tomonidan ushbu xizmatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, bajarilgan operatsiyalarning qonuniyligi haqida mijoz yozma tushuntirish bergunga qadar ushbu xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib turish yoki rad etish.

3.3.24. Masofaviy xizmatlardan foydalanilgan holda shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi haqidagi gumonlar mavjud bo'lganda masofaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada qayd etilgan shaxs tomonidan operatsiyalar amalga oshirilayotganligini mijozning joylashgan yeri (pochta manzili) yoki masofaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada belgilangan manzil bo'yicha o'rganish.

3.3.25. Shubhali operatsiyalar amalga oshirilganligi haqidagi gumonlar mavjud bo'lganda masofaviy xizmatlar ko'rsatishni 30 kun muddatga to'xtatib turish huquqiga ega.

3.3.26. Mijoz ma'lumotlarini shartnoma/oferta/kelishuv muddati davomida, shuningdek shartnoma bekor qilinganidan keyin 1 yil ichida istalgan manbalardan qayta ishlash.

3.3.27. Mijoz/qarz oluvchi/bank xizmatlari iste'molchisiga ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma bekor qilinganidan keyin 1 yil mobaynida bank mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taklif qilish va taqdim etish.

Ushbu bilan Mijoz, Bankdan bank mahsulotlari to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni olishga, so'zsiz roziligini bildiradi va Bankka topshiriq beradi. Ushbu topshiriqni bajarish uchun Mijoz/qarz oluvchi/bank xizmatlari iste'molchisi har qanday manbalardan mijoz ma'lumotlarini qayta ishlashga ham rozilik beradi.

3.3.28. Mijozning xalqaro operatsiyalari to'lov zanjirida ishtirok etuvchi korrespondent banklarning komplayens siyosati yoki sanksiya talablari bo'yicha to'xtatilganda, ijrosiz qaytarilganda yoki ishga solmay to'xtatib qo'yilgan (muzlatilganda) bank javobgar bo'lmaydi.

3.3.29. Mijoz (nerezident) O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketganda (Respublika hududidan vaqtincha chiqib ketib, qaytib kirish hollari bundan mustasno), O'zbekiston Respublikasida ishlash yoki o'qish muddati tugaganda Emitent bank ushbu mijozga xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi.

3.4. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Ommaviy ofertaning amaldagi tahriri bilan Bank ofislarida, Bankning hamkorbank.uz veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki tizimlarda tanishish.

3.4.2. Bank taklif qilayotgan qo‘shimcha xizmatlarni ulash.

3.4.3. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yuzasidan e‘tirozni Bankka yuborish.

3.4.4. Masofaviy bank xizmati ko‘rsatish masalalari bo‘yicha maslahatlarni Bankning Aloqa markazida yoki Bankning istalgan филиалида tarmog‘ida olish.

3.4.5. Bank oldidagi barcha qarzdorlikni avvaldan so‘ndirib, ҳамда barcha pul mablag‘larini avvaldan sarflab va barcha Karta hisobraqamlarini yopgan taqdirda, ushbu Ommaviy ofertani bajarishdan istalgan paytda bosh tortish.

3.4.6. Bankdan Oferta shartnomasi shartlarini bajarishni talab qilish.

3.4.7. Kirish kodlarini va/yoki autentifikatsiya ma‘lumotlarini bankka shaxsan murojaat qilib yoki masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish kanallari orqali o‘zgartirish.

4. MAXFIYLIK SHARTLARI

4.1. Ushbu Shartnomani tuzish va bajarishda Taraflar tomonidan olingan barcha ma‘lumotlar maxfiy hisoblanadi.

4.2. Taraflar ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni tuzish va bajarishda olingan maxfiy ma‘lumotlarni boshqa Tarafning yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

4.3. Ushbu talab Shartnomaning amal qilish muddati davomida va u bekor qilinganidan so‘ng 3 yil davomida amal qiladi.

4.4. Ushbu talabni bajarmaganlikda aybdor bo‘lgan Taraf buning natijasida boshqa Tarafga yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplab beradi.

5. MASOFAVIY BANK XIZMATLARI KO‘RSATISHNI MOBIL ILOVA VOSITASIDA AMALGA OSHIRISH TARTIBI

5.1. Mobil ilovaga kirish Mijozning mobil qurilmasiga uning operatsion tizimiga (Android va iOS) mos keladigan Mobil ilovani yuklab olish va o‘rnatish orqali amalga oshiriladi. Mobil ilova Apple Store va Play Market ilovalari do‘konlarida hamda Bankning hamkorbank.uz rasmiy (korporativ) veb-saytida mavjud.

5.2. Tizimlardagi amaliyotlar Mijoz tomonidan faqatgina Mijozning nomiga bankda ro‘yxatga olingan hisobraqamlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

5.3. Ushbu Shartnomada bayon qilingan tartib-tamoyilga muvofiq ravishda kelishilgan kanallar orqali uzatilgan topshiriqlarning Bank tomonidan olinishi mijozning qog'oz tashuvchidagi mazmunan aynan bir xil bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tuzilgan hujjatlarini Bank tomonidan olishiga tengligini taraflar e'tirof etadilar.

5.4. Internetga kirish va Tizimlarga ulanish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy ta'minot va kommunikatsion resurslarni Mijoz mustaqil ravishda va o'z hisobidan ta'minlaydi.

5.5. Taraflar ushbu oferta doirasida foydalaniladigan ma'lumotlarni ishlash, himoya qilish va uzatish tizimlari ruxsatsiz kirishdan ishonchli, samarali himoya qilish va xavfsiz ishlash uchun hamda elektron hujjatning haqiqiylikini tasdiqlash uchun yetarli ekanligini e'tirof etadilar.

5.6. Mijoz ushbu ofertada ko'rsatilgan shartlarga rioya qilmagan taqdirda, Tizimdan foydalanish ruxsatsiz kirish xavfi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida xabardor qilingan.

5.7. Mijozga masofaviy bank xizmatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlari va mazkur ofertaga muvofiq ko'rsatiladi.

5.8. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish tartibi:

5.8.1. "Hamkorbank" ATB mobil ilovasida mijozning barmoq izi/yuz biometriyasidan (keyingi o'rinlarda – Touch ID, barmoq izi bo'yicha autentifikatsiya qilish, Face ID, Mijoz yuzining biometriyasi) foydalanish natijasida olingan Maxfiy kod/Virtual token bo'yicha autentifikatsiya qilish, mijozning barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha autentifikatsiya qilish shartlari va tartibi 5.10.4-bandda ko'rsatilgan.

5.8.2. "Hamkorbank" ATB mobil ilovasida verifikatsiya qilish – Mijozning barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha verifikatsiya qilish natijasida olingan Maxfiy kod/Virtual token yordamida (Maxfiy kod avvaldan aniqlangan bo'lsa) aniqlash. Mijoz tomonidan tayinlangan va Bankning axborot bazasida mavjud bo'lgan Maxfiy kodlar bir-biriga mos kelgan taqdirda mijoz verifikatsiya qilingan hisoblanadi. Mijozning barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha verifikatsiya qilish shartlari va tartibi 5.10.5-bandda bayon qilingan.

5.8.3. Mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha verifikatsiya va/yoki autentifikatsiya qilish quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

- Xizmatlar olish uchun zarur bo'lgan dasturiy ta'minot o'rnatilgan mobil qurilma Mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha verifikatsiya va/yoki autentifikatsiya qilish imkoniyatini qo'llab-quvvatlaydi;
- Mijoz mobil qurilmadagi "Barmoq izi orqali kirish"/"Face ID yordamida kirish" rejimini faollashtirib Mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo'yicha verifikatsiya va/yoki autentifikatsiya qilishga rozilik beradi;

- “Hamkorbank” ATB xizmatlarini olish uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta’minot o‘rnatilgan mobil qurilma Mijoz va Mobil qurilma ishlab chiqaruvchisi o‘rtasida tuzilgan foydalanuv kelishuvini buzuvchi modifikatsiyaga uchramagan;
- “Hamkorbank” ATB xizmatlarini olish uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta’minot o‘rnatilgan mobil qurilma faqatgina mobil qurilmadagi “Barmoq izi orqali kirish”/“Face ID yordamida kirish” rejimini faollashtirgan mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo‘yicha verifikatsiya qilishga imkon beradi.

5.8.4. Mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo‘yicha autentifikatsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Maxfiy kod yordamida autentifikatsiya qilish va Mobil qurilmada “Barmoq izi orqali kirish”/“Face ID yordamida kirish” rejimini faollashtirish natijasida Bank ushbu rejimni faollashtirgan Mijozning Mobil qurilmasiga Virtual Tokenni uzatib beradi;
- Mijoz “Hamkorbank” ATBning “Barmoq izi orqali kirish”/“Face ID yordamida kirish” faollashtirgan mobil ilovasida bank mijozning mobil qurilmasidan bank o‘zi avval yuborgan Virtual tokenni avtomatik ravishda oladi;
- Bankning elektron jurnalida Bank tomonidan ilgari yuborilgan Virtual token mijozning mobil qurilmasidan olinganligi haqidagi yozuv saqlanadi;
- Bankning elektron jurnalida aks ettirilgan Mijozning mobil qurilmasidan Bank tomonidan ilgari yuborilgan virtual tokenni Bank tomonidan olishda mijozning barmoq izi/yuz biometriyasi yordamida autentifikatsiya qilish lozim darajada (muvaffaqiyatli) amalga oshirilgan deb hisoblanadi, hujjatning haqiqiyliги tasdiqlangan deb hisoblanadi, hujjat yuridik kuchga ega deb e’tirof etiladi va taraflarning huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

5.8.5. Mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi bo‘yicha verifikatsiya qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Maxfiy kod yordamida verifikatsiya qilish va Mobil qurilmada “Barmoq izi orqali kirish”/“Face ID yordamida kirish” rejimini faollashtirish natijasida Bank ushbu rejimni faollashtirgan Mijozning Mobil qurilmasiga Virtual Tokenni uzatib beradi;
- Mijoz “Hamkorbank” ATBning “Barmoq izi orqali kirish”/“Face ID yordamida kirish” faollashtirgan mobil ilovasida bank mijozning mobil qurilmasidan bank o‘zi avval yuborgan Virtual tokenni avtomatik ravishda oladi;
- Bankning elektron jurnalida Bank tomonidan ilgari yuborilgan Virtual token mijozning mobil qurilmasidan olinganligi haqidagi yozuv saqlanadi;
- Bankning elektron jurnalida aks ettirilgan Mijozning mobil qurilmasidan Bank tomonidan ilgari yuborilgan virtual tokenni Bank tomonidan olishda mijozning barmoq izi/yuz biometriyasi yordamida verifikatsiya qilish lozim darajada (muvaffaqiyatli) amalga oshirilgan deb hisoblanadi, hujjatning haqiqiyliги tasdiqlangan deb hisoblanadi, hujjat yuridik kuchga ega deb e’tirof etiladi va taraflarning huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi.

5.9. Bank tomonidan Mijozning mobil qurilmasidan Bank avval yuborgan Virtual tokendan farq qiluvchi ramzlar (timsollar) qatori olinganda verifikatsiya va/yoki autentifikatsiya lozim darajada bajarilgan (muvaffaqiyatli) deb hisoblanmaydi.

5.10. Bank Mijozning “Hamkorbank” ATB xizmatlarini olish uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta’minot o‘rnatilgan va mijozni barmoq izi/yuz biometriyasi yordamida verifikatsiya va/yoki Autentifikatsiya qilish imkoniyatini qo‘llab-quvvatlaydigan mobil qurilmasining to‘g‘ri ishlashi uchun javobgar emas.

5.11. Bank mijozga ushbu bobning shartlariga, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq va bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlar bajarilgan hollarda xizmatlar ko‘rsatadi:

- mijozni tizimlarda muvaffaqiyatli ro‘yxatdan o‘tkazish;
- identifikatsion parametrlarni kiritishda Mijozni muvaffaqiyatli ravishda avtorizatsiya qilish;
- ushbu Ommaviy ofertani qabul qilish;
- Xizmat ko‘rsatish uchun Bank texnik imkoniyatlarining mavjudligi;
- muayyan amaliyotlarni o‘tkazish uchun belgilangan boshqa shartlar.

5.12. Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar Mijoz uchun Bank Tizimlarining ish rejimlariga muvofiq imkonidir.

5.13. Agar amaliyot Bank xizmatlari doirasida, Bir martalik parol yordamida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, mijozning ko‘rsatilgan amaliyotni bajarish to‘g‘risidagi topshirig‘i Mijoz kiritgan Bir martalik parolning Bankning ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirishning ijobiy natijalaridan so‘ng amalga oshiriladi.

5.14. Bank quyidagi hollarda mijozga xizmat ko‘rsatishni bir tomonlama tartibda va sabablarini tushuntirmasdan rad etishga haqlidir: agar amaliyot parametrlari bank va/yoki amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan summalar va hisobraqamlar bo‘yicha amaliyotlar soni bo‘yicha cheklovlarga mos kelmasa; mijozning shubhali, noqonuniy amaliyotlar alomatlari mavjud bo‘lgan yoki bank uchun nufuziy va/yoki moliyaviy xavfga ega bo‘lgan amaliyotlari aniqlangan taqdirda, hamda

Bankda amaliyot O‘zbekiston Respublikasining jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida qonunchiligi talablarini buzgan holda amalga oshirilganligiga shubha tug‘ilganda.

5.15. Xizmat ko‘rsatganlik uchun Bank Mijozdan Bank tariflariga muvofiq komissiya undirish huquqiga ega. Komissiya summasi Mijozning qo‘shimcha farmoyishlarisiz hisobdan chiqarilishi kerak (ushbu Ommaviy ofertani qabul qilgandan so‘ng, Mijoz ko‘rsatilgan Xizmatlar uchun Bank Tariflariga muvofiq komissiyalarni undirishga rozi bo‘ladi). Bank qabul qiluvchi bank va/yoki jo‘natuvchi bank tomonidan undiriladigan komissiyalar uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.16. Mijoz Shartnomadan so‘ng kuchga kiradigan Xizmatlar shartlarini tasdiqlashdan oldin istalgan vaqtda Xizmatlarni olishdan bosh tortish imkoniyatiga ega.

5.17. Xorijiy valyutani sotib olish va sotish kurslari “Hamkorbank” ATB tomonidan chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilanadi. Chet el valyutasini sotib olish va sotish kursi savdo kuni davomida o‘zgarishi mumkin.

6. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH.

6.1. Bank Shartnomaning tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq ravishda bankka taqdim etilgan Mijozning shaxsiy va/yoki aloqa ma'lumotlariga tegishli har qanday shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalarsiz, jumladan to'plash, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, tarqatish (jumladan, Bankning hamkorlariga berish), shaxssizlantirish, bloklash va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir, Mijoz esa bunga rozilik beradi. Mijoz ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni oluvchi plastik kartasining emitent bankiga taqdim etish uchun, Shartnomani bajarish maqsadida, hamda Shartnomani bajarish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa har qanday maqsadlar uchun bankka rozilik beradi.

6.2. Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Mijoz Bankning o'z faoliyatini amalga oshirishi, Bank tomonidan ushbu Shartnoma shartlarining bajarilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa maqsadlarda mijozning har qanday shaxsiy ma'lumotlarini ishlash va ulardan foydalanish uchun Bankka muddatsiz rozilik beradi. Ushbu bilan mijoz ushbu Shartnomani bajarish uchun Bank tomonidan o'zining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berilishiga rozilik beradi.

6.3 Ushbu bilan, Mijoz ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek, shartnoma bekor qilinganidan keyin 1 yil mobaynida Mijoz ma'lumotlarini Bank tomonidan istalgan manbalardan olish va qayta ishlashga roziligini bildiradi.

6.4. Mijozning shaxsiy ma'lumotlari maxfiydir. Bank Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslikni va ularni qonuniy asoslarsiz tarqatishga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

6.5. Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartlarini qabul qilishi (aksept) Bank mijozning shaxsiy ma'lumotlari bilan, jumladan biometrik shaxsiy ma'lumotlar, xususan bank sirlari bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni ishlash huquqiga ega ekanligidan mijozning xabardor qilinganligi va bunga rozi ekanligini bildiradi. Chunonchi:

- F. I. Sh.;
- tug'ilgan yili, oyi, sanasi, tug'ilgan joyi;
- fuqaroligi;
- jinsi;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari (turi, seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilganligi, JSHSHIR), jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida, жумладан shuningdek uning nusxalari;
- manzili: yashash joyi, ro'yxatdan o'tish joyi, ish joyi;
- STIR, individual hisobvaraqqning sug'urta raqami;
- sug'urta qilingan shaxs individual hisobvarag'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- bandlik, mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar (jumladan ish staji, daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar), oilaviy ahvoli, mulkiy holati, ma'lumoti, kasbi;
- haydovchilik guvohnomasining ma'lumotlari, jumladan uning nusxasi;
- transport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;

- mijoz foydalanuvchisi va/yoki abonent bo'lgan telefon raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- operatorlar tomonidan ko'rsatilgan aloqa xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar (jumladan aloqa xizmatlarini olishda abonent qurilmasining joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar, trafik, ko'rsatilgan xizmatlar va ular uchun to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar), ularni ishlash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan mijoz abonent va/yoki foydalanuvchisi bo'lgan telefon raqamlaridan foydalangan holda bankning mijoz bilan aloqa kanalini tashkil etish;
- mijozning uyali aloqa operatorining abonent sifatidagi ma'lumotlari, jumladan quyidagi ma'lumotlar: telefon raqamini, SIM-kartaning xalqaro identifikatorini almashtirish fakti, uchinchi shaxsga qayta rasmiylashtirish yoki boshqa operatorga raqamni saqlab qolgan holda o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar;
- aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani bekor qilish, aloqa xizmatlari ko'rsatishni to'xtatib turish va qayta tiklash fakti to'g'risidagi ma'lumotlar;
- chaqiruvlar va xabarlarini qayta yo'naltirish xizmatlari ulanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- operator va abonent o'rtasidagi to'lov tizimining o'zgarishlari fakti to'g'risidagi ma'lumotlar;
- uyali aloqa operatori tomonidan abonentning sanab o'tilgan hodisalarning har qaysisi bo'yicha ma'lumotni Bankka berishni rad etishini olganlik fakti to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mijozning elektron pochta manzillari, Internet foydalanuvchisining nomi, Bankning saytida yoki mobil ilovasida yaratilgan akkaunt (hisobga olish yozuvi) haqidagi ma'lumotlar;
- metama'lumotlar, cookie-fayllar, cookie-identifikatorlar, IP-manzillar, brauzer va operatsion tizim to'g'risidagi ma'lumotlar;
- mijozning bank hisobraqamlari va kartalari, ular bo'yicha amalga oshiriladigan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Bank va boshqa kreditorlar oldidagi qarzdorlik miqdori;
- kredit tarixidan ma'lumotlar, boshqa, Bankka ilgari taqdim etilgan ma'lumotlar (jumladan bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlar);
- yuzning fototasviri;
- videotasvir;
- ovoznining audioyozuvi;
- mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar, jumladan aloqa kanallari orqali, Internetdan va/yoki shaxsiy ma'lumotlarning boshqa umumiy ochiq manbalaridan va/yoki uchinchi shaxslardan, jumladan davlat organlaridan va davlat axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar;

6.6. Mijoz tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni ishlashdan maqsad quyidagilar:

- Mijoz bilan tuzilgan kelishuvlar/shartnomalar, shuningdek, Bank Hamkorlari bilan tuzilgan kelishuvlar doirasida Bankning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini lozim darajada bajarishi;
- Bank bilan tuzilgan kelishuvlar/shartnomalar doirasida Mijozning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini lozim darajada bajarishi;
- Mijozning identifikatsiyasini o'tkazish;
- Mijoz bilan muloqot qilish, "Hamkorbank" ATB mobil ilovasidan foydalanishga taalluqli xabarnomalar, so'rovlar va ma'lumotlarni yuborish;
- Bank tomonidan xizmat ko'rsatish, shuningdek, mijozning so'rovlari va arizalarini ishlash, jumladan bunday so'rovlar va arizalarni keyinchalik bankning kontragentlari hamkorlariga bajarish uchun berish;
- Oferta shartnomasi bo'yicha bank kartasini ochish amaliyotlari, olingan ma'lumotlar jismoniy shaxslar uchun "Masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimi" orqali amalga oshiriladi;

- shaxssizlantirilgan ma'lumotlar asosida statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish;
- Bankning Hamkorlar\kontragentlar bilan hamkorlikda tashabbus qilingan aksiyalarda ishtirok etish haqidagi takliflarni tarqatish va aksiyada ko'zda tutilgan sovrinlar/mukofotlarni olish;
- reklama va axborot materiallarini telefon, faksimil aloqasi, elektron pochta yoki to'g'ridan-to'g'ri kontaktlar orqali tarqatish;
- "Hamkorbank" ATB mobil ilovasidan foydalangan holda noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar.

7. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

7.1. Taraflar va ularning affilirlangan shaxslariga, xodimlarga yoki boshqa agentlarga ushbu Shartnoma shartlarini bajarishda va ikkinchi tarafga tegishli qarorlar qabul qilishda pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni bevosita yoki bilvosita taqdim etish, va'da qilish, o'tkazish qat'iy man etiladi.

7.2. Taraflar va ularning affilirlangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ikkinchi taraf tomonidan ushbu Shartnomaning shartlarini bajarishda ta'sir ko'rsatish va/yoki qarorlar qabul qilish maqsadida pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni bevosita yoki bilvosita qabul qilishdan bosh tortishlari shart.

7.3. Taraflar ushbu Shartnomaning shartlarini bajarish davomida korrupsion harakatlar haqidagi ma'lumotlar, dalillar yoki shubhalarga ega bo'lsa, tegishli ma'lumotga ega bo'lgan Taraf bu haqda ikkinchi Tarafni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

7.4. Xabardor qilinayotgan taraf korrupsion faoliyatning amalga oshirilmaslik fakti tasdiqlangunga qadar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqlidir.

7.5. Taraflar korrupsion harakatlar tufayli boshqa tarafning vakili, xodimi va (yoki) affilirlangan shaxslarining yo'qotilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladilar

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Ushbu Ommaviy oferta Mijoz tomonidan qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar ushbu Ofertaga Ilovalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha amal qiladi.

8.2. Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, Bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

8.3. Mijozning xalqaro va milliy jazo choralariga tushib qolishi yoki mijozga nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi ehtimolini aniqlashning iloji bo'lmagan hollarda, bank bir tomonlama tartibda ushbu shartnomani bekor qilishga haqli. Shuningdek, agar mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar

uning arizasida ko'rsatilgan mijoz ma'lumotlariga mos kelmasa Bank mazkur shartnomani bir tarafdin bekor qilishga xaqlidir.

8.4. Agar mijoz "Taqiqlanganlar" toifasiga kirsa, "Hamkorbank" ATB ichki siyosatiga ko'ra, bank ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

8.5. Taraflar ahdlashdilarki: ushbu shartnoma/oferta/kelishuv har qanday asosga ko'ra bekor bo'lgani/kuchini yo'qotishiga qaramay mazkur shartnoma/oferta/kelishuvning "Maxfiylik", "Mijozning barcha rozilik va ruxsatlari" hamda "Harajatlar"ga oid normalar (qoidalar) shartnoma/oferta/kelishuv o'z kuchini shartnomaviy munosabatlar vujudga kelishidan oldin va keyin ham saqlab qoladi.

9. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Taraflar ushbu shartnomani bajarish bilan bog'liq barcha nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar.

9.2. Nizoni muzokaralar yo'li bilan hal qilishning imkoni bo'lmagan taqdirda, talab yoki ogohlantirish xatini olgan Taraf talab yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddatda javob berishi shart.

9.3. Muzokaralar yo'li bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, bank xizmatlari ofislari joylashgan yerda, sud tartibida hal etiladi.

10. FORS-MAJOR

10.1. Yengib bo'lmamas kuch holatlari (fors-major) – bu favqulodda xarakterdagi, Taraflarning ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga halaqit qilgan, Taraflarning irodasi va xohish-istaklari yoki ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holatlardir, jumladan tabiiy ofatlar (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va hokazo), ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni ta'qiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va/yoki bank ichki to'lov va ta'minot tizimlaridagi nosozliklar, bankning dasturiy ta'minot tizimiga tahdidlardir (uchinchi shaxslarning hujumlari).

10.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar ushbu holatlar bartaraf etilgunga qadar Shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladilar.

10.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan taqdirda bunday holatlar yuzaga kelgan taraf bu haqda ikkinchi tarafni ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan paytdan e'tiboran 3 bank kuni ichida xabardor qilishi shart.

10.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi to'g'risidagi xabarnomalar har qanday imkoniy aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

10.5. Fors-major holatlari 30 kun ichida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqlidirlar.

11. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilayotib Mijoz/Qarz oluvchi Xizmatga yo‘l ochilgunga qadar u ushbu Shartnoma va Bank Tariflari bilan belgilangan Xizmat ko‘rsatish tartibi va shartlarini o‘rganganligini, ularga rozi ekanligini tasdiqlaydi va ularni o‘zi uchun majburiy ekanligini e‘tirof etadi.

11.2. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va Taraflarga bajarish uchun majburiydir.

11.3. Agar Ilovalarda nazarda tutilgan qoidalar Ofertaning asosiy qismi shartlariga zid bo‘lsa, Ilovalarda nazarda tutilgan qoidalar ustuvor hisoblanadi.

11.4. Agar 1 – ilovada tartibga solinmagan qoidalar mavjud bo‘lsa, ushbu tartibga solinmagan qoidalarga nisbatan 3 – ilovada keltirib o‘tilgan qoidalar qo‘llaniladi va/yoki 3 – ilovada tartibga solinmagan qoidalar mavjud bo‘lsa, ushbu tartibga solinmagan qoidalarga nisbatan 1 – ilovada keltirib o‘tilgan qoidalar qo‘llaniladi.

12. ILOVALAR

12.1. 1-ilova. Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish (Masofaviy tarzda yuborilgan arizalarga nisbatan);

12.2. 2-ilova. Onlayn mikroqarz;

12.3. 3-ilova Bank kartalarini foydalanishga berish va ularga xizmat ko‘rsatish (Bank tarmoqlariga shaxsan tashrif buyurgan holda berilgan arizalarga nisbatan).

13. REKVIZITLAR

“Hamkorbank” ATB

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1991-yil 31-avgustdagi 64-sonli bosh litsenziyasi.

Yuridik manzil: O‘zbekiston, Andijon shahri, 170119, Bobur shoh ko‘chasi, 85-uy.

Pochta manzili: O‘zbekiston, Andijon shahri, 170119, Bobur shoh ko‘chasi, 85-uy.

MFO: 00083, STIR: 200 242 936 IFUT: 64190.

Tel: 1256 yoki 0 800 1 200 200

Elektron pochta: contact@hamkorbank.uz

BANK KARTALARINI CHIQRISH VA XIZMAT KO'RSATISH

(Masofaviy tarzda yuborilgan arizalarga nisbatan)

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

ABS – bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi.

Emitent bank — bu BK emissiyasini amalga oshiruvchi, o'zi emissiya qilgan bank kartalariga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan, o'z nomidan ularning saqlovchilari va ekvayerlar oldida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid qonunchilik hujjatlari talablari asosida majburiyatlarni zimmasiga olgan, shuningdek BK saqlovchilarining to'lov operatsiyalari bo'yicha avtorizatsiyalash, tranzaksiyalarni yig'ish va ularga ishlov berish funksiyalarini amalga oshiruvchi bank.

Kartani bloklash va/yoki blokdan chiqarish – Bank yoki Egasi tomonidan BKning ishlashini tugatish va/yoki bekor qilish choralarini ko'rish.

BK bo'yicha amaliyotlar o'tkazish sanasi – Mijoz tomonidan tovarlar/xizmatlar uchun to'lov va/yoki naqd pullarni kiritish/yechib olish uchun Kartadan foydalangan holda amaliyotlar o'tkazish sanasi, ushbu sana mablag'larni karta hisobraqamidan hisobdan chiqarish/kiritish sanasi bilan to'g'ri kelmasligi mumkin.

Karta hisobraqamidan mablag'larni hisobdan chiqarish/kiritish sanasi – Karta hisobraqami bo'yicha amaliyot summasini hisobdan chiqarish/kiritish sanasi, ushbu harakatlar Mijozning Kartalar yordamida amaliyotlarni bajarganligini yoki ilgari o'tkazilgan Karta hisobraqamidan mablag'larni hisobdan chiqarish/kiritishni bekor qilishni tasdiqlovchi topshiriqlarning Bankka kelib tushgan kundan keyingi amaliyot kunidan kechiktirmay amalga oshiriladigan harakatdir, amaliyot o'tkazish sanasi bilan to'g'ri kelmasligi mumkin.

Bank kartasi foydalanuvchisi (yoki Mijoz) - arizasiga asosan karta hisobvarag'i ochgan, BK bo'yicha to'lov operatsiyalarini amalga oshirish hamda BK va karta hisobvarag'ini yopish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs. BK bank tarafidan BK foydalanuvchisi vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi va bankning mulki hisoblanadi.

Muzlatish – ekvayerdan hisob-kitobni kutayotgan, muayyan muddatga zahiralangan amaliyot summasi.

Garov depoziti – BKdagi mablag'lardan ortiqcha sarflangan mablag'larni qoplash uchun, Karta hisobraqami yopilgandan so'ng 3 (uch) bank kuni ichida BK egasiga qaytariladigan pul summasi.

Zolotaya Korona – hisobraqam ochmasdan tezkor pul o'tkazmalari xizmati bo'lib, xizmatlarni Rossiya, MDH davlatlari, Yevropa Ittifoqi va boshqa bir qator mamlakatlar hududida taqdim etadi.

To'lovlar tarixi (Monitoring) – Mijozning tizimlarda hisobraqamlardan foydalangan holda amalga oshirgan barcha harakatlarining elektron ifodalanishidir. To'lovlar tarixidan ko'chirma yetarlicha dalil bo'lib, Bank va Mijoz tomonidan Mijozning Tizimlardagi harakatlari haqidagi ma'lumot sifatida foydalanilishi mumkin.

Kobeydjing (qo'shma) bank kartasi – O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa mamlakatlar banklari (emitentlari) tomonidan chiqarilgan va turli to'lov tizimlari infratuzilmasida foydalanish uchun mo'ljallangan ikki yoki undan ortiq to'lov tizimlarining qo'shma bank kartasi. Bank kartasi egasining bank hisobraqami bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliyotlar turlari bank kartasi egasi va emitent o'rtasida tuzilgan Shartnoma asosida belgilanadi.

Konversiya amaliyoti — masofadan turib xorijiy valyutadagi xalqaro bank kartasi orqali milliy valyutadagi bank kartasidan amaliyot kuni davomida xorijiy valyutani sotib olish va sotish amaliyotlarini bajarish.

Valyuta kursi — amaliyot kuni uchun belgilangan konversiya kursi.

Ruxsat etilmagan ortiqcha xarajat – amaliyotlarni hisobraqam to'lov limitidan oshib ketadigan miqdorda amalga oshirish.

Pul mablag'larini o'tkazish (kartadan kartaga o'tkazish) – pul mablag'larini Bankning Mobil ilovasi (bank o'tkazmasi) orqali, shuningdek, Bankda ochilgan hisobraqamlardan (hisobraqamlarga) o'tkazish.

Hisobraqamdagi to'lov limiti – mijozning hisobraqamdagi o'z mablag'lari qoldig'i va kredit limiti summasini o'z ichiga oluvchi, hisobraqamda bloklangan amaliyotlar summasini, tegishli komissiyani yoki mijozning Bankning mobil ilovasi orqali berilgan topshirig'iga ko'ra zahiralangan summalarni chegirib tashlagan holdagi pul mablag'lari summasi.

Topshiriq – Tizimlarda mavjud bo'lgan xizmatlarni olish uchun mijoz tomonidan yuborilgan, elektron hujjat shaklida qayd etilgan harakat.

Karta rekvizitlari (ma'lumotlari) – kartada ko'rsatilgan ma'lumotlar: kartaning raqami, amal qilish muddati, BK egasi/saqlovchisining ismi va familiyasi (lotin alifbosi harflarida), CVV (CVC/CVN) kodi.

“Visa Direct” xizmati – VISA xalqaro to'lov tizimi tarmog'i bazasidagi texnologiya bo'lib, VISA to'lov tizimi kartasining egalariga real vaqt rejimida pul mablag'larini xavfsiz o'tkazish imkonini beradi.

Visa Alias – onlayn tranzaksiyalarning xavfsizligini ta'minlash uchun yaratilgan noyob identifikator. U real bank hisobraqami bilan assotsiatsiyalanadigan vaqtinchalik karta raqamidan iborat bo'lib, Internetda xaridlarni amalga oshirish uchun qo'llanilishi mumkin. Visa Alias mijozning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilish va onlayn to'lovlar xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bank kartalarining to'lov tizimlariga tegishliligi bo'yicha turlari – amaliyotlar o'tkazish, jumladan Tizimlardan foydalangan holda amaliyotlar o'tkazish uchun Bank tomonidan emissiya qilingan “UZCARD”, “HUMO” milliy to'lov tizimlarining bank kartalari va “VISA”, “UnionPay” xalqaro to'lov tizimlarining bank kartalari.

Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi (SXX) – tovar va xizmatlarni to'lash uchun BKni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi.

Tranzaksiya – BK egasi tomonidan amalga oshiriladigan, uning bank hisobraqamining debetlanishiga olib keladigan har qanday amaliyotlar.

To'lov shablonlari – Mijoz tomonidan Bank mobil ilovasi xizmati vositasida yaratilgan, Bankda saqlanadigan va mijoz tomonidan tizimlar orqali pul mablag'larini o'tkazishga farmoyishlarni rasmiylashtirish uchun foydalaniladigan to'lov rekvizitlari to'plami.

Ekvayring – SXX bilan kartalardan (karta rekvizitlari) foydalangan holda va/yoki kartalar egalariga naqd pul mablag'larini berish, shuningdek, boshqa amaliyotlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, amaliyotlar o'tkazishni ta'minlash bo'yicha ishtirokchining faoliyati.

Ekvayer/ekvayer bank – ekvayringni amalga oshiruvchi ishtirokchi.

Elektron to'lov – mijozning topshirig'i bo'yicha tizimlarda naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish.

Emissiya – bank kartalarini kartani egasiga vaqtincha foydalanish uchun berish orqali muomalaga chiqarish.

Emitent – emissiyani amalga oshiruvchi ishtirokchi.

CVV (CVC/CVN) kodi – to'lovlarni Internet orqali amalga oshirishda foydalaniladigan bank kartasining maxfiy raqami.

2. UMUMIY SHARTLAR

2.1. Ushbu Ilovaning qoidalari milliy valyutadagi bank kartalari va kobeydjing kartalarini chiqarish, xizmat ko'rsatish va yopish, hamda xalqaro valyutadagi kartalarga xizmat ko'rsatish tartib-tamoyillari doirasida Bank va Bank kartasi egasi o'rtasidagi munosabatlar tartibini belgilaydi.

2.2. Bank bank kartasini vaqtinchalik foydalanish uchun uning egasiga beradi va o'zaro hisob-kitoblarni bank kartasi orqali amalga oshiradi. Bank kartasining egasi bank xizmatlari uchun Shartnoma shartlariga muvofiq haq to'laydi.

2.3. Tizim tomonidan taklif etilayotgan asosiy xizmatlar (elektron to'lovlarni amalga oshirish, balansni tekshirish, to'lovlar tarixi, valyuta kurslari va h. k.), jumladan milliy valyutadagi karta hisobraqamlari bo'yicha Xizmatlarga yo'l ochish, plastik kartaga ariza berish, kartani ko'rsatilgan

manzilga yetkazib berish, kredit olish uchun ariza berish Mijoz tomonidan masofaviy tarzda, Bank ofislariga kelmasdan amalga oshiriladi.

Shartnoma mijozning bank bo'limiga murojaat qilishi va/yoki Bankning Mobil ilovasidan foydalanishi orqali tuzilishi mumkin. Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish tizimlari orqali Shartnoma tuzish uchun Mijoz Bankning shakli bo'yicha, ushbu Ofertaning yuqori shartlariga muvofiq ariza shakllantiradi, amaldagi qonunchilik va bank tomonidan o'rnatilgan talablarga muvofiq Shartnomani tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni ilova qiladi. Bank mijozning arizasini qabul qilgandan so'ng Shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Bank karta hisobraqamini ochish orqali arizani qabul qiladi. Mazkur Bu holatda shartnoma mijoz nomiga karta hisobraqami ochilgan sanada tuzilgan hisoblanadi. Mijoz tomonidan oddiy elektron imzo yordamida to'ldirilgan va imzolangan ariza Bank tomonidan qabul qilingan taqdirda Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va mijozning Ommaviy ofertada bayon etilgan Umumiy qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Mijoz ariza berishda bankning tariflari bilan tanishganligi va rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Har bir keyingi Bank kartasining ochilishi tegishli Kelishuvning tuzilishi bilan кечадди amalga oshiriladi.

2.4. Tizimning ishtirokchilari quyidagilar:

- “Hamkorbank” ATB – Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bank;
- mijoz;
- Banklararo universal netting axborot tizimi (keyingi o'rinlarda “BUNAT”);
- Paynet;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
- kommunal, aloqa xizmatlari, tovarlar va Bank tomonidan o'rnatilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi, tegishli billing tizimiga ega bo'lgan, BUNATga yoki hisob-kitoblarning boshqa shunga o'xshash tizimlariga ulangan xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- davlat organlari va muassasalari;
- Yagona umumrespublika protsessing markazi (YAUPM);
- Milliy banklararo HUMO protsessing markazi (MBPM);
- VisaNet;
- UnionPay International (UPI);
- oluvchi bank (kommunal, aloqa xizmatlari, tovarlar va Bank tomonidan o'rnatilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektning bank hisob raqami ochilgan bank, hamda ularning foydasiga Elektron to'lov amalga oshirilayotgan bank kartalari egalari).

2.5. Bank kartasi bankning mulki hisoblanadi.

2.6. Karta shaxsiylashtirilgan to'lov vositasi bo'lib, Kartaning qonuniy egasiga tegishliligi uning ismi, familiyasi va/yoki Kartada mavjud bo'lgan imzo namunasi (kartada shunday maydon mavjud bo'lgan taqdirda), shuningdek PIN-kod bilan belgilanadi.

2.7. Kartadan faqat Mijoz yoki Karta hisobraqamida hisobga olinadigan mablag'larni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs foydalanishi mumkin. Bunday holda Kartadan foydalanish va u bilan amalga oshirilgan amaliyotlar uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

3. BANK KARTALARINI CHIQRARISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

3.1. Shartnomaga muvofiq chiqarilgan bank kartasi uning raqami va boshqa xavfsizlik atributlaridan foydalangan holda tovarlar yoki xizmatlar uchun haq to'lash, bank kassalarida yoki bankomatlarda naqd pul mablag'larini olish, pul mablag'larini o'tkazish, shuningdek, Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

3.2. Bank kartasining PIN-kodi Karta egasi tomonidan Bankka shaxsan murojaat qilish yoki tegishli To'lov tizimi kartasining PIN-kodini o'zgartirish funksiyasini qo'llab-quvvatlovchi masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish kanallari orqali o'zgartirilishi mumkin. Texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda bank PIN-kodni o'zgartirish imkoniyatini taqdim etadi. Yangi PIN-kodni o'rnatishda bir xil yoki ketma-ket raqamlar kombinatsiyasidan foydalanish tavsiya etilmaydi. Karta egasi PIN-kodni cheksiz ko'p marta o'zgartirishi mumkin. PIN-kod yo'qotilgan taqdirda tiklanmaydi, bunday holda mijoz PIN-kodni o'zgartirish yoki kartani qaytadan chiqarish uchun, texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda Bankning Aloqa-Markaziga murojaat qilishi, PIN-kodni Bankning Mobil ilovasida mustaqil ravishda o'zgartirishi lozim.

3.3. Kartaning ish qobiliyatini saqlab qolish uchun Karta egasi Shartnomada belgilangan Kartani saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilishi va quyidagilarga yo'l qo'ymasligi kerak:

- Kartaga magnit maydonlarning ta'siri. Magnit maydonlarning manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin: metall materiallar (tangalar, magnit mahkamlagichlar, chizg'ichlar va boshqalar), mobil telefonlarning ayrim modellari, video-, audio uskunalar, qo'l metall detektorlari va boshqalar;
- Kartaning mexanik shikastlanishi;
- Kartaning ifloslanishi;
- Kartaga yuqori harorat va Kartaning plastigi va/yoki chipini buzadigan agressiv muhitning ta'sir qilishi.

3.4. Karta egasi kartadan uning amal qilish muddati tugagunga qadar foydalanishi mumkin. Kartaning amal qilish muddati uning old tomonida ko'rsatilgan va oyning ikki raqami va yilning oxirgi ikki raqami bilan belgilangan. Karta unda ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi. Bank kartasining amal qilish muddati to'lov tizimi tomonidan belgilanadi va 5 (besh) yildan oshmaydi.

3.5. UzCard-UnionPay/HUMO-Visa kobeydjing kartalari UnionPay/Visa debet kartasi asosida chiqariladi. Ushbu kartalar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab qabul qilinadi, shuningdek, ular bilan UnionPay/Visa bilan xorijiy valyutada to'lashning imkoni bo'lgan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham xaridlar yoki xizmatlar uchun haq to'lash uchun foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasining hududida kobeydjing kartalari UzCard/HUMO kartalari kabi vazifa bajaradi va savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida to'lovlarni amalga oshirish, Internet orqali xaridlar qilish va bankomatlardan naqd pul yechib olishda ulardan foydalanish mumkin.

3.6. Bank kartasini chiqarish:

3.6.1. Bank bank kartasini Ommaviy oferta shartlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, individual shartlarni belgilaydigan kelishuvlar va Bank Mobil ilovasi va/yoki Bank tarmog'i orqali berilgan Arizaga muvofiq chiqaradi.

3.6.2. Bank kartasi kelishuv tuzilgan kundan e'tiboran 3 (uch) bank ish kuni (Kobeydjing kartasini berish muddati 10 (o'n) ish kuni) ichida, Bankning tariflarida nazarda tutilgan summalar ushbu Oferta shartlariga muvofiq to'langan taqdirda beriladi.

3.6.3. Agar yetkazib berishda Bank kartasi ko'rsatilgan manzil bo'yicha egasining yo'qligi sababli unga topshirilmasa yoki uning egasi kartani ariza berilgan paytdan e'tiboran 3 (uch) oy ichida Bankdan mustaqil ravishda olib ketmagan taqdirda karta yo'q qilinadi, bank Tariflariga muvofiq olingan qo'shimcha to'lov esa Karta egasiga qaytarilmaydi.

3.7. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi:

3.7.1. Bank Kartada Bank tariflariga muvofiq bankka to'lanadigan komissiyalarni to'lash uchun yetarlicha bo'lgan pul mablag'lari mavjudligida Shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatadi. Bunda Karta hisobraqamini ochish va Kartani chiqarish faqat tegishli komissiya Bank Tariflarida (mavjud bo'lganda) ko'rsatilgan miqdorda to'langanidan keyingina amalga oshiriladi.

3.7.2. Mijoz Bank tomonidan chiqarilgan bank kartalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banklarining kartalariga milliy va xalqaro valyutadagi o'tkazmalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

3.7.3. Xarid qilishda, naqd pul olishda va chekni imzolashda Karta egasi bank kartasi bo'yicha amaliyotni bajarishni tasdiqlovchi PIN-kodni (zarurat tug'ilganda) kiritishi shart.

3.7.4. Bank Mijoz tomonidan Tizim orqali amalga oshiriladigan pul o'tkazmalarining maksimal va minimal miqdorini belgilash, o'zgartirish va bekor qilish huquqiga ega. Mijoz limitning amaldagi miqdori haqidagi ma'lumotlar bilan tizim orqali pul o'tkazish jarayonida tanishishi mumkin. Bunda Mijozning ўзининг hisobraqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun Bank javobgarlikni o'z zimmasida bo'lmaydi.

3.7.5. Karta bo'yicha amaliyotni amalga oshirishda PIN-kodni to'g'ri kiritish, Maxfiy kod va Bank kartasining to'g'ri rekvizitlaridan foydalanish Bank uchun amaliyotning shaxsan Karta egasi tomonidan amalga oshirilganlik faktining so'zsiz tasdig'idir va ushbu amaliyotni Avtorizatsiya qilish (agar Avtorizatsiya qilish tartib-tamoyili to'lov tizimi qoidalarida nazarda tutilgan bo'lsa) va keyinchalik amaliyot summasini Karta hisobraqami/bank kartasidan hisobdan chiqarish uchun asos bo'ladi. Bunda mijoz bunday amaliyotning o'tkazilishi uchun javobgar bo'ladi.

3.7.6. Bank avtorizatsiya jarayoni natijasida amaliyotni o'tkazish uchun akseptni olganda va bank ko'rsatilgan xizmatlarni taqdim etish uchun zarur harakatlarni amalga oshirganda pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq xizmatlar bank tomonidan ko'rsatilgan hisoblanadi.

3.7.7. Pul mablag'larini oluvchining bank kartasiga kirim qilish yoki kirim qilish oluvchining rekvizitlari bo'yicha Emitent bank yoki boshqa shaxslarning aybi bilan Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan muddatlar va boshqa talablar buzilgan holda amalga oshirilgan taqdirda, Bank javobgar bo'lmaydi.

3.7.8. Bank Mijoz tomonidan topshiriqni rasmiylashtirish, xizmatlar parametrlarini kiritish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar yoki o'tkazmani qabul qiluvchining rekvizitlarini noto'g'ri kiritganlik uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday hollarda xizmatlar Bank tomonidan Mijozga lozim darajada va Shartnomaga to'la mos ravishda ko'rsatilgan deb hisoblanadi va Mijoz xizmat ko'rsatish natijasida hisobraqamiga pul mablag'lari kelib tushgan jismoniy yoki yuridik shaxs bilan kelgusidagi o'zaro hisob-kitoblarni mustaqil ravishda Bank ishtirokisiz) tartibga solishi lozim.

3.7.9. Mijoz o'z Kartasidan ruxsatsiz foydalanish oqibatida pul mablag'lari yo'qotilishining oldini olish uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi shart, chunonchi:

- Bank kartalari/karta hisobraqamlari bo'yicha barcha harakatlar to'g'risida SMS-xabarlar orqali tezkor ma'lumotlarni olish uchun "SMS-xabar berish" xizmatiga ulanish;
- PIN-kod va/yoki bank kartasini boshqa shaxslarga bermaslik;
- PIN-kodni Bank kartasiga yozmaslik;
- PIN-kodni bank kartasi bilan birga saqlamaslik;
- Bank kartasi rekvizitlari (kartaning to'liq raqami, Kartaning amal qilish muddati) va amaliyotni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni xabar qilmaslik, Bankka kartaga xizmat ko'rsatish bo'yicha murojaat qilish hollari bundan mustasno;
- Bank kartasi va uning rekvizitlarini boshqa shaxslar tomonidan foydalanilmasligini ta'minlash, kartani o'zida yoki boshqalar uchun imkonsiz joyda saqlash;
- Kartaning saqlanish joyida mavjudligini doimiy ravishda tekshirish, ayniqsa uzoq vaqt bo'lmaslikdan so'ng (ta'til, xizmat safari va h.k.);
- tovarlar (xizmatlar) uchun to'lovni amalga oshirishda bir vaqtning o'zida bir nechta Bank kartalarini taqdim etmaslik;
- shaxsiy ma'lumotlar yoki bank kartasi ma'lumotlari so'ralgan elektron pochta yoki SMS xabarlariga javob bermaslik. Kod ma'lumotlari, pasport raqami, Bank kartasi raqami va uning PIN-kodi, Tekshirish kodi, karta bilan yaqinda amalga oshirilgan amaliyotlar yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni so'ragan har qanday kompaniya yoki shaxsdan shubhalanish; Abonent qurilmasini tarmoq hujumlari, zararli dasturlarni o'rnatish va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashdan himoya qiluvchi dasturiy ta'minotni o'rnatish va doimiy ravishda yangilab borish.

3.7.10. Mijoz pul mablag'larini boshqa tijorat banklarining kartalariga o'tkazishda yoki ularning kartalaridan o'tkazishda qo'shimcha to'lovlar undirilishi mumkinligini tushunadi va bunga rozi bo'ladi. Ko'rsatilgan hollarda xizmatlar Bank tomonidan Mijozga lozim darajada va Shartnomaga to'la mos ravishda ko'rsatilgan deb hisoblanadi va mijoz bunday komissiyani oluvchi bilan keyingi munosabatlarni mustaqil ravishda tartibga solishi shart.

3.7.11. "Hamkorbank" ATB Mobil ilovasida konvertatsiya qilish faqat "Hamkorbank" ATBda emissiya qilingan bank kartasiga istalgan Bankning UzCard va HUMO bank kartasidan amalga oshiriladi.

3.7.12. Garov depoziti bank tariflariga muvofiq Karta hisobraqamiga olingan birinchi to'lovdan chegirib qolinadi, agar bu Bankning Tariflarida nazarda tutilgan bo'lsa. Birinchi depozitni kiritish imkoni bo'lmagan taqdirda depozitning keyingi summasi bank hisobraqami bo'ladigan keyingi amaliyotda chegirib qolinadi.

3.7.13. Taraflar Bank Mijozni bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlar sodir etish to'g'risida tegishli xabarnomani Bankning Mobil ilovasiga joylashtirish orqali xabardor qilishiga rozi bo'ladilar. Bank kartasi, uning rekvizitlari va/yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risida Bankning xabarnomalarni olish uchun mijoz Karta hisobraqami va bank kartalari bo'yicha amaliyotlarni monitoring qilish maqsadida Bankning Mobil ilovasiga har kuni murojaat qilishi shart. "Monitoring" bo'limida ko'rsatilgan amaliyotlar (summalar) va haqiqatan amalga oshirilgan amaliyotlar (to'langan summalar) o'rtasida tafovutlar aniqlangan taqdirda Mijoz ushbu Oferta shartlariga muvofiq zudlik bilan bankni bu haqda xabardor qilishi shart. To'lov tizimining qo'shimcha protsessing markazi Mijozni Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlar sodir etilganligi haqida SMS-xabar qilish xizmati orqali xabardor qiladi, agar bunday xizmat ulangan bo'lsa.

3.7.14. Chek/elektron chek yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob beradigan boshqa hujjat va/yoki karta hisobraqami bo'yicha amaliyotlar haqidagi ko'chirma amaliyot sodir etilganligining tasdig'i hisoblanadi.

3.7.15. Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Ommaviy oferta, Karta tegishli bo'lgan to'lov tizimining umumiy shartlari va qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Bank kartasini yopish, bloklash va qayta chiqarish:

3.8.1. Karta hisobraqamini yopish ushbu hisobraqam bilan bog'liq bo'lgan tegishli Bank kartasidan foydalanishning to'xtatilishiga olib keladi, biroq hisobraqamning amal qilish muddati tugamaydi.

3.8.2. Bloklangan karta hisobraqamlaridagi amaliyotlarning to'xtashi ularga bog'langan bank kartalaridan foydalanish huquqining bekor qilinishiga olib keladi.

3.8.3. Bankdan bank kartasi va karta hisobraqamini yopish to'g'risida so'rov olinganda bank to'lov tizimining qismi bo'lmagan va to'lov topshiriqnomasi bo'yicha olingan pul mablag'larini karta hisobraqamiga o'tkazmaydi. Bunday to'lovlar to'lovchining ma'lumotlari asosida bank tomonidan qaytarib beriladi.

3.8.4. Agar karta Karta egasi tomonidan Bankdan o'z muddatida olinmagan bo'lsa, bank Karta egasining so'roviga ko'ra Bank kartasini yangi muddatga qaytadan chiqarishga haqlidir.

3.8.5. Bank kartasini qayta rasmiylashtirishda kartaning yangi amal qilish muddati karta emissiya qilingan kundan boshlanadi.

3.8.6. Bank kartasi yo‘qolgan, singan yoki mexanik shikastlanganda, shuningdek, Karta egasining kartada ko‘rsatilgan familiyasi va/yoki ismi o‘zgarganda va karta boshqa sabablarga ko‘ra muddati tugagunga qadar qaytadan rasmiylashtirilgan taqdirda qayta chiqarish karta egasining arizasi asosida, Bank Tariflarida ko‘rsatilgan tegishli qo‘shimcha summa (agar mavjud bo‘lsa) to‘langan taqdirda amalga oshiriladi.

3.8.7. Bank kartasidan foydalangan holda tranzaksiya yoki bank hisobraqami doirasidagi amaliyotlar quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirda, istalgan vaqtda to‘xtatib qo‘yilishi (bloklanishi) mumkin:

- BK egasining yozma so‘roviga binoan;
- Oferta shartlari buzilgan taqdirda;
- Bank hisobraqami bo‘yicha amaliyotlar to‘xtatib qo‘yilgan taqdirda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.8.8. Bank kartasi va Bank hisobraqami Bank tomonidan quyidagi hollarda bloklanishi mumkin:

- ushbu Oferta shartlari buzilgan taqdirda;
- BH yopilgan taqdirda;
- bir yil davomida BKX ishlatilmaganda yoki BH bilan amaliyotlar amalga oshirilmaganda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.8.9. PIN-kod 3 (uch) marta noto‘g‘ri terilganda bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi. Bank kartasini blokdan chiqarish uchun mijoz Bankning aloqa markaziga yoki Bankning bo‘limiga murojaat qilishi kerak.

4. KOMPROMETATSIYA

4.1. Bank kartasi yo‘qolgan, o‘g‘irlangan yoki shikastlangan taqdirda va/yoki bank kartasi yoki uning rekvizitlari, shuningdek PIN-kod, kirish kodlari, autentifikatsiya ma‘lumotlari, abonent raqami yo‘qolganligi yoki o‘g‘irlanganligiga shubha tug‘ilsa, shuningdek hisob-kitob kartasi bankomat yoki savdo va xizmat ko‘rsatish korxonasida olib qo‘yilgan, hamda egasining ismi yoki familiyasi o‘zgargan taqdirda Mijoz Bankni bu haqda darhol xabardor qilishi va Bank kartasi va Bankning mobil ilovasini zudlik bilan bloklashi, hamda Bank kartasini muddatidan ilgari qayta chiqarish haqida ariza berishi lozim. Og‘zaki bayonotga ko‘ra Bank faqat Bank kartasi va Bankning Mobil ilovasini bloklash choralarini ko‘radi. Mijozga yuqorida ko‘rsatilgan hodisalar natijasida yetkazilgan zararlar uchun Bank javobgar bo‘lmaydi.

4.2. Ilgari yo‘qolgan deb e‘lon qilingan bank kartasi topilsa, egasi uni Bankka qaytarishi shart. Ushbu Bank kartasidan kelgusida foydalanish taqiqlanadi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Mijozga Tarif rejasiga muvofiq milliy va/yoki chet el valyutasida Karta hisobraqamini ochish.

5.1.2. Bank kartasi bo‘yicha har bir amaliyot to‘g‘risida Mijozni unga Masofaviy xizmatlar doirasida ma‘lumot taqdim etish orqali xabardor qilish.

5.1.3. Mijozning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Shartnomaga muvofiq rasmiylashtirilgan topshirig‘ini ijroga qabul qilish.

5.1.4. Bank kartasi egasining foydasiga kelib tushgan pul mablag‘larini lozim darajada rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlari olingan kundan e‘tiboran uch ish kuni ichida kirim qilish.

5.1.5. Karta egasidan uning yo‘qolganligi yoki o‘g‘irlanganligi to‘g‘risida yozma va/yoki og‘zaki xabarnoma olganda ushbu karta bilan amalga oshiriladigan barcha tranzaksiyalarni to‘xtatib turish choralarini ko‘rish.

5.1.6. Tariflar va ularning o‘zgarishlari to‘g‘risida Bankning www.hamkorbank.uz veb-saytida e‘lon qilib borish.

5.1.7. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, mijozga Bank kartasini ariza berilgan kundan e‘tiboran 3 (uch) bank kuni ichida Kartani yetkazib berish muddatini hisobga olmagan holda (agar bankda yetkazib berish xizmati mavjud bo‘lsa) chiqarish/qayta chiqarib berish.

5.1.8. Bank kartasidan foydalangan holda amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarning amalga oshirilishi va to‘g‘riligini ta‘minlash.

5.2. Mijoz quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

5.2.1. Ushbu Shartnomaga imzolagunga qadar Shartnoma shartlari va Bank tariflari bilan o‘z vaqtida va to‘liq hajmda tanishib chiqish.

5.2.2. Bank kartasidan Shartnomaga muvofiq, Bank kartasida imkoniy bo‘lgan pul mablag‘lari chegarasida, Bank kartasining old tarafida ko‘rsatilgan amal qilish muddati davomida foydalanish.

5.2.3. Kartadan sotilishi amaldagi qonunchilikda ta‘qiqlangan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda foydalanmaslik. Ushbu Shartnoma doirasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq amaliyotlarni amalga oshirmaslik.

5.2.4. Maxfiy ma‘lumotlarni, jumladan maxfiy kodlarni, parollarni, karta rekvizitlarini va uchinchi shaxslarga berib bo‘lmaydigan boshqa ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik. Bank kartasi rekvizitlari va boshqa maxfiy ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishning salbiy oqibatlari uchun mijozning o‘zi javobgar bo‘ladi.

5.2.5. Tizimdan foydalanishda ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish.

5.2.6. Xizmatlardan foydalanishdan oldin bankning ushbu Xizmatlarni taqdim etishga bo‘lgan cheklovlari bilan tanishib chiqish.

5.2.7. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun (bundaylar mavjud bo'lganda) Bankning Tariflariga muvofiq komissiya to'lash.

5.2.8. Shartnoma shartlari, jumladan, ushbu Ilovaning 3.7.9-bandida ko'rsatilgan Bank kartasini saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilish.

5.2.9. Xizmat ko'rsatish uchun Topshiriqni rasmiylashtirishda Bank tomonidan so'ralgan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish.

5.2.10. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumotlar va axborotlarni Bankning talabiga ko'ra taqdim etish.

5.2.11. Hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish va pul mablag'larini yechib olish holatlari to'g'risida zudlik bilan Bankka 1256 yoki 0 800 1 200 200 aloqa raqamlari orqali xabardor qilish.

5.2.12. Ushbu Shartnomaga rioya qilmaslik natijasida Mijoz tomonidan bankka yetkazilgan zararni qoplash, hamda mijozning topshiriqlarini bajarganlik uchun bankka to'lanadigan komissiyalarni Bankning amaldagi tariflariga muvofiq hisobraqamlardan hisobdan chiqarish uchun bankka huquq berish.

5.2.13. PIN konvertni qabul qilayotganda, PIN konvertda tashqi shikastlar yo'qligiga ishonch hosil qilish.

5.2.14. Bank kartasi uchun PIN-kodni o'rnatish va o'zgartirish va uni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

5.2.15. PIN-kod uch marta noto'g'ri kiritilgan taqdirda karta egasi telekommunikatsiya tizimlari (Bankning aloqa markaziga telefon orqali va/yoki bankning Internet tarmog'idagi veb-sayti va/yoki Bankning Mobil ilovasi va/yoki Internetdagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, jumladan elektron pochta va telegram-bot orqali) darhol Bank bilan bog'lanishi va o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Xorijiy valyutadagi karta uchun PIN-kodni noto'g'ri terish urinishlar sonini bekor qilish (tashlash) Bankning istalgan ofisida amalga oshiriladi. Milliy valyutadagi karta uchun PIN-kodni noto'g'ri terish urinishlar sonini bekor qilish (tashlash) faqatgina ushbu karta ochilgan Bank bo'limida amalga oshiriladi.

5.2.16. Shartnoma doirasida foydalaniladigan Bank Tariflari, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlardagi o'zgarishlar to'g'risidagi yangilangan ma'lumotlarni olish uchun Bankning Internet tarmog'idagi saytiga muntazam ravishda tashrif buyurish.

5.2.17. Bank kartasi yo'qolgan yoki ruxsatsiz foydalanilgan taqdirda, karta egasi bu haqda Bankni xabardor qilishi shart. Agar Bank kartasining yo'qolganligi yoki ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabardor qilinmagan bo'lsa, buning oqibatida kelib chiqadigan barcha xavf-xatarlarni Karta egasi o'z zimmasiga oladi.

5.2.18. Shartnoma o‘z kuchini yo‘qotgach, Bank kartasini biror-bir qo‘shimcha shartlarsiz bankka qaytarish.

5.2.19. Emitent bank va to‘lov tizimining dasturiy ta‘minotidagi texnik uzilishlar va xatolar natijasida yuzaga kelgan ortiqcha mablag‘larni emitent bankka qaytarish.

5.2.20. Karta egasi tomonidan Shartnomani buzish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash, shuningdek, Shartnoma shartlariga rioya qilmaslik natijasida bankka yetkazilgan zararlarni qoplab berish.

5.3. Bank quyidagilarga haqlidir:

5.3.1. Mijozga bank kartasini chiqarish, faollashtirish, qayta chiqarish yoki blokdan chiqarishni o‘z xohishiga ko‘ra va sabablarini ko‘rsatmasdan rad etish.

5.3.2. Barcha Mijozlar yoki Mijozlarning ayrim toifalari uchun xizmatlardan foydalanishga cheklovlar o‘rnatish, jumladan: o‘tkazmalarning turi va miqdori, farmoyishlarni berish usullari, o‘tkazmalarni oluvchilar ro‘yxati va boshqalar. Bank o‘z xizmatlariga avtomatik murojaat qilishni ta‘qiqlashi, shuningdek har qanday ma‘lumotni qabul qilishni to‘xtatishi mumkin.

5.3.3. Bank kartasi egasi Shartnoma shartlarini buzgan va o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Bank kartasining amal qilishini to‘xtatib turish.

5.3.4. Bank kartasi egasi/saqlovchisining shaxsi shubha tug‘dirganda, Bank kartasidan foydalangan holda amalga oshirilayotgan amaliyotlar qonunga zid bo‘lganda yoki shaxsni identifikatsiyalashni talab qilganda xizmat ko‘rsatishni rad etish.

5.3.5. Quyidagi hollarda Bankning mobil ilovasiga qabul qilingan qaror to‘g‘risida xabarnomani joylashtirish orqali Bank kartasidan foydalangan holda amaliyotlarni vaqtincha to‘xtatib turish:

- Karta yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishdan ochiq-oydin dalolat beruvchi holatlar mavjudligi;
- Kartadan unga vakolati bo‘lmagan shaxsning foydalanishi;
- ushbu Umumiy shartlar va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

5.3.6. Bank kartasi Mijoz tomonidan yo‘qotilgan, shikastlangan yoki haqiqiy emas deb topilganda, hamda amal qilish muddati tugagandan so‘ng almashtirilgan taqdirda Xizmatlar uchun belgilangan tarif bo‘yicha to‘lov olish.

5.3.7. Emitent bank va to‘lov tizimining dasturlarida texnik nosozliklar va xatolar natijasida Bank kartasida ortiqcha mablag‘lar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu mablag‘larni Bank kartasining hisobraqamidan ushlab qolish.

5.3.8. Mijoz tomonidan Karta chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan e‘tiboran 3 (uch) oy davomida olinmagan chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartani to‘langan komissiyani qaytarmasdan (karta hisobraqamini yopgan holda) yopish. Bank tomonidan Karta hisobraqami va Kartani yopish

huquqlarini amalga oshirish maqsadida, Mijoz ushbu band Karta hisobraqami va Kartani yopish to'g'risidagi Mijozning arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

5.3.9. Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va ma'lumotlar ishonchsiz bo'lgan taqdirda Mijozga Karta chiqarishni va Karta hisobraqami ochishni rad etish.

5.3.10. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida mijozdan mijozni identifikatsiya qilish va Karta hisobraqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishni bank tomonidan quyidagilar aniqlangan kuni bir tomonlama rad etish:

- Kartadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilayotganligiga asosli shubhalar;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida shubhali amaliyotlarni takroran amalga oshirish yoki Kartadan foydalanilayotganligiga asosli shubhalar.

5.3.11. Mijozning qo'shimcha farmoyishlarisiz (avvaldan berilgan aksept), Mijozning quyidagi bitimlardan kelib chiqadigan bank oldidagi majburiyatlarini bajarishi uchun pul mablag'larini karta hisobraqamidan hisobdan chiqarish:

- tuzilgan Shartnoma, jumladan Bank Tariflari bilan belgilangan komissiyalar;
- Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi/Onlayn mikroqarz shartnomasi, jumladan kredit shartnomasi/Onlayn mikroqarz shartnomasida nazarda tutilgan asosiy qarz, foizlar, jarimalar, qoplovlar va boshqa to'lovlar;
- mijoz kafil sifatida chiqadigan (gavdalanadigan) Bank bilan tuzilgan kafolat shartnomasi;
- Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar.

5.3.12. Shartnomaga Ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritishni taklif qilish.

5.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

5.4.1. Ofertaning amaldagi versiyasi bilan Bank ofislarida, Bankning korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda tanishish.

5.4.2. Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni Karta hisobraqamidagi pul mablag'lari qoldig'i chegarasida, Shartnoma va To'lov tizimi bilan nazarda tutilgan tartibda va shartlarda amalga oshirish.

5.4.3. Karta hisobraqamidagi qoldiqni Bank kassasiga naqd pul kiritish, hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq naqd pulsiz usul bilan to'ldirish.

5.4.4. Pul mablag'larini Kartada mavjud bo'lgan pul mablag'lari chegarasida o'tkazish uchun arizalar berish.

5.4.5. Bank taklif qilayotgan qo'shimcha xizmatlarga ulanish.

5.4.6. Ko'rsatilgan xizmatlar sifati yuzasidan Bankka e'tiroz yuborish.

5.4.7. Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish masalalari bo'yicha Bankning Aloqa markazi yoki Bankning istalgan tarmoqlarida maslahat olish.

5.4.8. Ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish, kartani bankka qaytarish va Xizmatga kirishni berkitish. Bunda Mijozga pul mablag'larini Xizmat yordamida ochilgan hisobraqamlardan qaytarish hisobraqam belgilangan tartibda ochilgan Bank tarmog'i tomonidan amalga oshiriladi.

5.4.9. Masofaviy bank xizmatlari orqali Karta hisobraqami/karta bo'yicha ko'chirma olish.

5.4.10. Kartani ushbu Oferta shartnomasi qoidalarida nazarda tutilgan tartibda bloklash va blokdan chiqarish haqida Bankka yozma va/yoki og'zaki shaklda iltimos bilan murojaat qilish.

5.4.11. Bank kartasidan foydalanish qoidalari, Mijoz javobgarligining chegaralari va Bank kartasi emitentining undan foydalangan holda amalga oshiriladigan amaliyotlar to'g'risida to'liq ma'lumot olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Bank o'zining nazoratidan tashqarida bo'lgan fors-major vaziyatlar va tashqi hisob-kitob tizimlari, To'lov tizimlari, ma'lumotlarni ishlash va uzatishdagi uzilishlar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar uchun, hamda agar karta uchinchi taraf tomonidan to'lov uchun qabul qilinmagan taqdirda javobgar bo'lmaydi.

6.3. Bank boshqa kredit tashkilotlari, moliya muassasalari, To'lov tizimlari va hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilari tomonidan Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirganlik uchun undiriladigan komissiyalar va qo'shimcha to'lovlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.4. Bank Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan amaliyotlar, jumladan Mijoz Bankni Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish (bloklash) yoki Bank kartasining yo'qolganligi to'g'risida xabardor qilguniga qadar bank kartasi rekvizitlaridan foydalangan holda sodir etilgan amaliyotlar uchun javobgar bo'lmaydi. To'lov tizimlari talablariga muvofiq, Bank to'lovlarni Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirishi shart va Mijozning karta hisobraqamini Mijoz Bankni Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish (bloklash) yoki Bank kartasining

yo‘qolganligi to‘g‘risida xabardor qilgan vaqtga qadar sodir etilgan amaliyotlar summasiga teng bo‘lgan summaga debetlashga haqlidir.

6.5. Bank quyidagi hollarda Mijoz oldida javobgar bo‘lmaydi:

- Karta egasi Shartnoma, Bank tariflari, Ommaviy oferta va amaldagi qonunchilikda ko‘rsatilgan qoidalar va tartib-tamoyillarni buzganda;
- Karta egasi tomonidan noqonuniy hatti-harakatlar sodir etilganda;
- Bank kartasi va (yoki) PIN-kodning yo‘qolishi Mijozning aybi yoki ehtiyotsizligi tufayli sodir bo‘lganda.

6.6. Bank quyidagilar uchun javobgar bo‘lmaydi:

- mijozning moliyaviy yo‘qotishlari uchun, agar tranzaksiyalar Internet orqali karta rekvizitlari ko‘rsatilgan holda amalga oshirilgan bo‘lsa;
- Bankning nazoratidan tashqarida bo‘lgan holatlar tufayli o‘z majburiyatlarini bajarishning imkoniyati yo‘qligi;
- savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalaridan tovarlar/ishlar/xizmatlarni sotish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarilmasligi;
- uchinchi shaxslarning Tranzaksiyalarda ishtirok etuvchi uskunalari yoki aloqa kanallari ishidagi uzilishlar;
- Mijoz Tizim yordamida xato to‘lovni amalga oshirganligi;
- Shartnomaning shartlariga mos kelmaydigan yoki ularga zid bo‘lgan Tranzaksiyalar bo‘yicha pul mablag‘larni qoplash bo‘yicha.

6.7. Taraflar tizimlar bilan ishlashda olingan ma‘lumotlarning saqlanishi va maxfiyligini ta‘minlash uchun javobgardirlar.

6.8. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo‘ladi:

- Shartnoma shartlarini buzganlik;
- Bank kartasining butligi va saqlanishi, shuningdek, Mijoz yoki Karta rekvizitlariga ega bo‘lgan uchinchi shaxslar tomonidan Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan tranzaksiyalar;
- PIN-kod/Kirish kodi/Maxfiy kod va bank kartasi rekvizitlarini boshqa shaxslarga o‘tkazish;
- Bank PIN-kod/Kirish kodi/Maxfiy kod uchinchi shaxslarga oshkor qilinganligi to‘g‘risida xabardor bo‘lishidan oldin (Masofaviy Bank xizmatlari ko‘rsatish kanallari orqali tegishli ariza) amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalar;
- Mijoz Kartani yo‘qotgan taqdirda, Bank xabardor qilingunga qadar o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha;
- Bank kartasi rekvizitlaridan foydalangan holda Internet orqali amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar;
- mijozning Kartalardan foydalanish qoidalariga rioya qilmaganligi sababli bank kartalari bo‘yicha firibgarlik tranzaksiyalari natijasida ko‘rilgan barcha zararlar;
- Bankka taqdim etilgan barcha ma‘lumotlarning ishonchiligi.

6.9. Elektron to'lov bankning aybi bilan xatolik bilan amalga oshirilgan taqdirda, Bank xato aniqlangandan keyingi ish kunidan (amaliyot kunidan) kechiktirmay mablag'larni oluvchining hisobraqamiga o'tkazishi shart. Aks holda, Mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bankdan mablag'larni qaytarishni, hamda foizlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga muvofiq, lekin noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summasining o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda har bir kun uchun, to'lov kuniga qadar to'lashni talab qilish huquqiga egadir.

6.10. Taraflarning Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan javobgarligi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Ushbu Ilovaning amal qilish muddati Mijoz ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan paytdan boshlab, shuningdek, Mijozning karta hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi arizasini Bank qabul qilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va karta hisobvarag'i yopilgunga qadar amal qiladi.

7.2. Shartnoma mijozning arizasiga binoan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin. Mijoz ariza berilgan kunda Shartnoma bo'yicha chiqarilgan barcha amaldagi bank kartalarini qaytarishi shart. Karta hisobraqamidagi pul mablag'larining qoldig'i Shartnomaga muvofiq qaytariladi.

7.3. Oferta shartnomasining bank kartalariga taalluqli qismi bekor qilingan taqdirda, Bank Karta hisobraqami bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turadi. Mavjud mablag'larning qoldig'i boshqa hisobraqamga saqlovchining yozma arizasiga asosan o'tkazib beriladi yoki karta keyingi 3 (uch) va/yoki 5 (besh) yilga uzaytirilgan taqdirda, hisobraqam qayta tiklanadi.

7.4. Agar Mijoz Bank kartasini bank kartasi chiqarilgan/qayta chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida olmasa va Shartnoma doirasida chiqarilgan boshqa amaldagi Bank kartalari mavjud bo'lmagan taqdirda Shartnoma amal qilishini to'xtatgan (bekor qilingan) hisoblanadi.

7.5. Shartnomani bekor qilishda Mijoz tomonidan Shartnoma bekor qilingunga qadar Bank Tariflariga muvofiq to'langan Bank kartasi va u bo'yicha amalga oshirilgan amaliyotlar bilan bog'liq barcha komissiyalar mijozga qaytarilmaydi.

7.6. Shartnomani to'xtatish (bekor qilish) Taraflarning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bekor qilinishiga olib keladi va Karta hisobraqamini yopish uchun asos bo'ladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Tomonlar "Bank siri to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan hollarda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, shuningdek Bankka ushbu Shartnomaga muvofiq bank tomonidan xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarga yetkazilishi yoki taqdim etilishiga bank siriga oid ma'lumotlarni oshkor etilishi xisoblanmasligiga kelishib oldilar. Taraflar bank tomonidan "Bank siri to'g'risidagi Qonunda nazarda tutilgan hollarda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, hamda Bankka ushbu Shartnomaga

muvofiqbank tomonidan hizmat ko`rsatishga qaratilgan texnik tUSDagi hizmatlar ko`rsatuvchi shaxslarga habar qilinishi yoki taqdim etilishi bank sirini oshkor etish etmasligiga kelishib oladilar.

8.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

8.3. Shartnoma shartlarida nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalar bo'yicha Taraflar Ommaviy oferta qoidalari va amaldagi qonunchilikka amal qiladilar.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular Kelishuv va Ommaviy oferta talablariga muvofiq kiritilgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Bankning aybi bilan texnik xatolik tufayli o'tkazma/to'lov amalga oshirilmagan taqdirda Mijoz texnik xatolikni bartaraf etish uchun asosli taklif/ariza/xabarnoma bilan quyidagi aloqa kanallari orqali bankka murojaat qilishi lozim:

- bankning aloqa markazi – 1256 telefon raqami orqali;
- Telegramdagi @ConsultHamkorbankBot boti.

Bank, o'z navbatida, taklif/ariza/xabarnoma olingan paytdan e'tiboran 15 ish kuni ichida texnik xatolikni bartaraf etishi shart.

8.6. Moliyaviy xizmat o'z vaqtida ko'rsatilmaganligi sababli mijozga zarar yetkazilgan taqdirda mijoz asoslantirilgan e'tiroz/ariza/xabarnoma bilan quyidagi aloqa kanallari orqali murojaat qilishi lozim:

- Bankning istalgan tarmog'iga;
 - contact@hamkorbank.uz elektron manzil orqali;
- Bunda e'tiroz/ariza/xabarnomada quyidagilar ko'rsatiladi;
- e'tiroz bildirgan mijozning F. I. Sh.;
 - e'tiroz bildirish sanasi;
 - e'tiroz bildirish uchun asos bo'lgan holatlar;
 - e'tirozda bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;
 - mijozning talablari;
 - e'tiroz summasi va uning hisob-kitobi, ariza beruvchining to'lov va pochta rekvizitlari;
 - e'tirozga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati;
 - murojaatni har tomonlama ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan, bank talab qilgan boshqa hujjatlar.

Bank da'vo/ariza/xabarnoma olingan paytdan e'tiboran 15 kalendar kun ichida kompensatsiya to'lash to'g'risidagi da'voni/arizani/xabarnomani ko'rib chiqadi va kompensatsiya to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi yoki da'voni/arizani/xabarnomani qanoatlantirish rad etilganligining asoslantirilgan javobini yuboradi.

ONLAYN MIKROQARZ

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvali – Onlayn mikroqarz berishning individual shartlari to'g'risidagi Bitimning jadval ko'rinishidagi ilovasi, unda onlayn mikroqarz bo'yicha kelgusidagi barcha to'lovlar aks ettirilgan bo'ladi.

Qarz oluvchi – onlayn mikroqarz oluvchi va o'ziga pul mablag'larini belgilangan muddatda qaytarish va qarzdin foydalangan davri uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladigan ushbu Shartnomaning tarafi.

Onlayn mikroqarz – bank tomonidan Qarz oluvchiga – “Hamkorbank” ATB tizimida identifikatsiyadan o'tgan jismoniy shaxsga to'lovlilik, muddatlilik va qaytarishlilik shartlarida beriladigan 1 000 000 (bir million) so'mdan 100 000 000 (yuz million) so'mgacha miqdordagi pul mablag'lari.

Kreditning to'liq qiymati (KTQ) – haqqoniy, yillik va samarali hisoblagandagi foiz stavkasi bo'lib, uni hisoblashda qarz oluvchining qarz olish bilan bog'liq to'lovlari hisobga olinadi. Kreditning to'liq qiymati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi. Qarz umumiy qiymatining tarkibiy qismlari haqidagi batafsil ma'lumot onlayn mikroqarz berishning individual shartlarida keltiriladi.

Muntazam to'lov – Onlayn mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun Mijoz har oyda yo'naltirishi shart bo'lgan pul mablag'lari miqdori. Muntazam to'lovning miqdori va to'lov muddati Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvalida ko'rsatiladi.

Individual shartlar haqidagi Kelishuv (bundan keyin "Kelishuv") – ushbu Oferta asosida tuziladigan alohida Kelishuv. Individual shartlar qarz summasini belgilaydi, shuningdek, taraflarning berilayotgan qarz shartlari va parametrlari sohasidagi munosabatlarini tartibga soladi.

Ssuda hisobraqami – kredit amaliyotlarini amalga oshirish uchun Qarz oluvchi nomiga ochilgan hisobraqam.

2. UMUMIY SHARTLAR

2.1. “Onlayn mikroqarz” mahsulotining ushbu Umumiy qoidalari (bundan keyin “Umumiy qoidalar”) Bank tomonidan Mijozga O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – o'zbek so'midagi Onlayn mikroqarz berish tartibini belgilaydi va Onlayn mikroqarz berish to'g'risida Shartnoma tuzish chog'ida mijoz va Bank o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnoma Mijoz tomonidan ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan va Kelishuv tuzgan paytdan e'tiboran tuziladi.

2.3. Ushbu Shartnomaga muvofiq Onlayn mikroqarz olishni xohlovchi jismoniy shaxslarga bo‘lgan muayyan talablar, kreditlash muddatlari, boshqa to‘lovlar, shuningdek, boshqa shartlar potensial qarz oluvchilar e‘tiboriga tegishli ma‘lumotlarni Bankning tanloviga ko‘ra ommaviy ochiq joyda (www.hamkorbank.uz manzildagi Bankning Internet tarmog‘idagi rasmiy saytida, Internet-bankda, Bankning mobil ilovasida, veb ilovasida, ommaviy axborot vositalarida va h.k.) joylashtirish orqali yetkaziladi.

2.4. Mijoz Onlayn mikroqarz berish shartlariga rozi bo‘lganda va ofertani ma‘lumotlarni uzatish va arizani yuborish shartlarini qabul qilganda, mijoz mazkur Umumiy shartlarni masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda yoki bank tomonidan belgilangan boshqa usullar bilan onlayn rejimda qabul qiladi. Ushbu aksept bank uchun mijozning arizasini potensial qarz oluvchi sifatida ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladi. Bank Mijozning arizasini ma‘qullagan taqdirda Bank va Mijoz o‘rtasida Onlayn mikroqarzning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuv tuziladi.

2.5. Kelishuv Qarz oluvchi tomonidan har bir onlayn mikroqarz olishdan oldin alohida tuziladi. Qarz oluvchi ushbu Oferta va Kelishuv matni bilan tanishib, shuningdek, Bankning Mobil ilovasida yoki/va veb ilovasida rozilik (qabul) taqdim etish, ya‘ni Qarz oluvchi tomonidan ushbu Oferta va Kelishuv qabul qilinganidan so‘ng Shartnoma shartlarini qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi. Mijoz yuqoridagi harakatlarni bajargan paytdan e‘tiboran Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.6. Qarz oluvchi Bankning sabablarini ko‘rsatmagan holda Onlayn mikroqarz berishni rad etishga haqli ekanligiga rozidir.

2.7. Onlayn mikroqarz berish Shartnomasini tuzayotib Mijoz Bankka istalgan vaqtda Kredit-axborot tahliliy markazidan va boshqa manbalardan o‘zining kredit tarixi haqidagi ma‘lumotlarni so‘rab olish huquqini beradi.

3. ONLAYN MIKROQARZNI BERISH VA SO‘NDIRISH TARTIBI

3.1. Onlayn mikroqarz berish:

3.1.1. Ushbu Umumiy qoidalarga muvofiq, Bank Mijoz uchun milliy valyuta – o‘zbek so‘mida ssuda hisobraqamini ochadi. Hisobraqam raqami bank tomonidan bir tomonlama tartibda tayinlanadi.

3.1.2. Bank Qarz oluvchiga Bankning mobil ilovasi yoki/va veb ilovasi orqali taqdim etgan arizasiga asosan, Onlayn mikroqarz berish to‘g‘risida Shartnoma tuzgan holda va ushbu ofertada/shartnomada ko‘rsatilgan tegishli tartiblarga rioya qilgan holda Onlayn mikroqarz beradi.

3.1.3. Onlayn mikroqarz milliy valyutada, kredit liniyasini ochmasdan, pul mablag‘larini qarz oluvchining bank kartasiga o‘tkazib berish yo‘li bilan ajratiladi.

3.1.4. Mikroqarz ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, Bank bu haqda Qarz oluvchiga SMS-xabar jo‘natish (qarz oluvchining bank kartasiga ulangan telefon raqamiga yoki Qarz oluvchining arizada ko‘rsatilgan telefon raqamiga) yoki push-bildirishnoma jo‘natish yo‘li orqali xabar beradi.

Bunday holda, ushbu bandeda ko'rsatilgan Bank tomonidan tegishli bildirishnoma yuborilgunga qadar, Qarz oluvchi o'zining kredit olish uchun arizasini bekor qilishga haqli.

3.1.5. Bankning mobil ilovasining yoki/va veb ilovasining foydalanuvchisi Mijoz/Qarz oluvchiga onlayn kredit (mikroqarz) ajratilganida, Qarz oluvchi quyidagi cheklovlarga o'z roziligini va ushbu cheklovlar bilan tanishganligi haqida Bankka kafolat beradi:

onlayn kredit (mikroqarz) olayotganda 48 soat ichida quyidagi operatsiyalarni bajarishga cheklov:

- i. p2p operatsiyalarini amalga oshirish;
- ii. jismoniy shaxslarning elektron hamyonlari va joriy hisobvaraqlarini to'ldirish yoki pul o'tkazish;
- iii. p2p o'tkazmalari orqali to'ldirish imkoniyatini shakllantirgan mobil aloqa operatorlar orqali telefon raqam hisobini to'ldirish;
- iv. xorijiy valyutadagi to'lovlarni amalga oshirish, pul o'tkazmalari/konversiya operatsiyalari/xorijiy valyutani sotib olish va sotish.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan cheklovlar Qarz oluvchi tomonidan mazkur ofertada/shartnomada/kelishuvda ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali yoki SMS-xabarda/push-xabarnomada ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlariga qong'iroq qilib qo'shimcha tasdiqlash protsedurasidan muvaffaqiyatli yakunlash orqali yechiladi.

3.1.6. Qarz oluvchi ushbu bilan shuni tasdiqlaydi va rozilik beradi, agar kredit (mikroqarz) firibgarlar (huquqbuzarlar) ta'sirida olinganligi/berilganligi yoki Qarz oluvchi tasdiqlash protsedurasidan muvaffaqiyatli o'tmasa va mikroqarz sarflanmagan bo'lsa, Bank ushbu shartnomani/ofertani/kelishuvni bir tomonlama bekor qilish va kredit mablag'larini qaytarish huquqiga ega.

3.1.7. Bankning Onlayn mikroqarz berish majburiyati Onlayn mikroqarz Bankda ochilgan Bank kartasiga o'tkazib berilgan sanadan e'tiboran bajarilgan hisoblanadi.

3.1.8. Onlayn mikroqarzni miqdori, muddati, foiz stavkasi, to'lov jadvali Kelishuv bilan belgilanadi.

3.1.9. To'lov sanasi bankning dam olish kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, to'lov sanasi kuni deb undan keyingi eng yaqin bank ish kuni hisoblanadi. Bunda to'lov summasi o'zgaradi (dam olish/bayram kunlari uchun foizlar to'lov summasiga kiritiladi va keyingi to'lovdan chiqarib tashlanadi).

3.1.10. Qarz oluvchi bankka pul mablag'larini qarz hisobraqamidan o'tkazib berishga topshiriq beradi va bunga rozi bo'ladi. Pul mablag'lari ushbu topshiriqqa muvofiq qarz hisobraqamida shakllanishi bilanoq bank mablag'larni Qarz oluvchi ko'rsatgan Bank kartasiga o'tkazib beradi. Ushbu bandeda ko'rsatilgan norma 3.1.5 va 3.1.6-bandlarda ko'rsatilgan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3.1.11. Bank Onlayn mikroqarzni ushbu Oferta shartlari Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan (aksept) va Kelishuv tuzilgan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni ichida taqdim etadi. Ushbu bandeda ko'rsatilgan norma 3.1.5 va 3.1.6-bandlarda ko'rsatilgan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

3.1.12. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Bankning ichki me‘yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra Bank Onlayn mikroqarz berishning individual shartlarini nazarda tutuvchi Kelishuvni tuzishni rad etishga haqli. Bunday holda Bank va Qarz oluvchi o‘rtasida Onlayn mikroqarz berish to‘g‘risidagi Shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi va bu holat Taraflar o‘rtasida hech qanday huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

3.2. Onlayn mikroqarzni so‘ndirish:

3.2.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq berilgan Onlayn mikroqarz bo‘yicha asosiy qarzni so‘ndirish (qaytarish) Onlayn mikroqarz berishning individual shartlari to‘g‘risidagi Kelishuvning ajralmas qismi bo‘lgan Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2.2. Mijozning Onlayn mikroqarzini so‘ndirish uchun kelib tushayotgan mablag‘lar Onlayn mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlar, jarimalar, komissiyalar va boshqalar bo‘yicha qarzdorlikni so‘ndirish uchun ishlatiladi. Bank foydasiga kelib tushgan, mijozning ushbu to‘lov sanasidagi majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lmagan to‘lov mijozning ushbu Umumiy qoidalar bo‘yicha Bank oldidagi majburiyatlarini to‘lash uchun quyidagi tartibda yo‘naltiriladi:

- birinchi navbatda – asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik (kredit bo‘yicha asosiy qarzni to‘lash sanasi buzilganda shakllanadi);
- ikkinchi navbatda – foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik (hisoblangan, lekin so‘ndirish sanasiga to‘lanmagan va asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikka hisoblangan);
- uchinchi navbatda – asosiy qarz bo‘yicha joriy qarzdorlik;
- to‘rtinchi navbatda – asosiy qarzga hisoblangan joriy foizlar;
- beshinchi navbatda – jarima va penyalari;
- oltinchi navbatda – bankning qarzdorlikni so‘ndirish bilan bog‘liq boshqa xarajatlari.

3.2.3. Foizlar, jarimalar miqdori kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan oshmasligi kerak.

3.2.4. Muddatli qarzdorlik (so‘ndirish sanasi kelmagan qarzdorlik/mikroqarzni muddatidan ilgari so‘ndirish) Qarz oluvchining ko‘rsatmalariga muvofiq so‘ndiriladi.

3.2.5. Asosiy qarzni so‘ndirish ushbu Umumiy shartlarga muvofiq berilgan Onlayn mikroqarznining hisobi yuritilayotgan ssuda hisobraqamiga amalga oshiriladi. Hisoblangan foizlar esa Onlayn mikroqarz bo‘yicha hisoblangan foizlarning hisobi yuritilayotgan hisobraqamiga amalga oshiriladi. Asosiy qarz va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni so‘ndirish sanasi deb mablag‘lar ko‘rsatilgan hisobraqamlarga kelib tushgan kun hisoblanadi.

3.2.6. Onlayn mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to‘lovlarni so‘ndirish bank tomonidan Mijozning topshiriqlari, bankning farmoyishlarini bajarish va/yoki bank tomonidan Mijozning talab qilib olgunga qadar depozit hisobraqamidan pul mablag‘larini mustaqil ravishda akseptsiz yechib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3.2.7. Ushbu Umumiy qoidalarga muvofiq Onlayn mikroqarz, foizlar va boshqa to‘lovlarni to‘lash Mijoz tomonidan o‘zining Karta hisobraqamini/Bank kartasini Bankning yoki O‘zbekiston

Respublikasining boshqa banklarining kartalari/hisobraqamlaridan pul o'tkazish yo'li bilan to'ldirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

4. ONLAYN MIKROQARZDAN FOYDALANGANLIK UCHUN TO'LOV

4.1. Qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar Kelishuvda belgilangan nominal stavka bo'yicha, haqiqatda berilgan Onlayn mikroqarzning qoldig'idan kelib chiqib hisoblanadi.

4.2. Onlayn mikroqarz bo'yicha asosiy qarz qoldig'i bo'yicha foizlar har kuni ish kunining oxirida, yiliga 365 (uch yuz oltmish besh) kun va har oydagi kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqib hisoblanadi. Hisoblash ssuda hisobraqamida qarzdorlik vujudga kelgan kundan e'tiboran boshlanadi.

4.3. Mijoz Onlayn mikroqarzdani foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni kelishuvga muvofiq to'lov sanasida bankka to'laydi.

4.4. Onlayn mikroqarzdning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hisoblanadi. Batafsil ma'lumotlar kelishuvda keltiriladi.

5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

5.1.1. Onlayn mikroqarz berish va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Qarz oluvchiga ssuda hisobraqamlarini ochish.

5.1.2. Qarz oluvchining arizasi Bank tomonidan ma'qullangan taqdirda Qarz oluvchiga Kelishuvda belgilangan miqdorda va shartlarda Onlayn mikroqarz ajratish. Mijozga Onlayn mikroqarzdani Umumiy qoidalarda belgilangan limit va muddatlarda foydalanish imkoniyatini taqdim etish.

5.1.3. Onlayn mikroqarz muddatidan ilgari undirilgan taqdirda Qarz oluvchini buning sabablari haqida xabardor qilish.

5.1.4. Qarz oluvchiga uning huquq va majburiyatlari to'g'risida, hamda Bank tariflariga muvofiq Onlayn mikroqarz olish bilan bog'liq xarajatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumot taqdim etish.

5.1.5. Qarz oluvchini u tomonidan o'z kredit majburiyatlarini bajarmaslik oqibatlari – qarz oluvchining xarajatlarini oshirishi mumkin bo'lgan oshirilgan foizlar va jarimalarning hisoblanishi to'g'risida xabardor qilish.

5.1.6. Qarz oluvchini ushbu Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikni qaytarish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari, holati, muddati, summasi va tarkibi bo'yicha xabardor qilish, Qarz oluvchidan muddati o'tgan qarzdorlikning yuzaga kelish sabablarini oydinlashtirish.

5.1.7. Qarz oluvchi shartnomada ko'rsatilgan tartibda qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzgan taqdirda, o'zining nizolarni sudga qadar tartibda hal qilish to'g'risidagi talabini Qarz oluvchining e'tiboriga yetkazish.

5.1.8. Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda Qarz oluvchiga bo'lgan qarz yukining yanada oshib ketmasligi uchun, qarzdorlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran (yetti) kalendar kun ichida, Qarz oluvchi bilan Shartnomada kelishilgan har qanday aloqa vositalaridan, jumladan elektron aloqa vositalari yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalangan holda Qarz oluvchini Onlayn Mikroqarzni qaytarish jadvalini ilova qilgan holda xabardor qilish.

5.1.9. Onlayn mikroqarz berishni to'xtatib turish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay Qarz oluvchining abonent raqamiga Onlayn mikroqarz berish rad etilganligi yoki qisman to'xtatilganligi to'g'risida SMS-xabar yuborish.

5.2. Qarz oluvchi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

5.2.1. Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnomaga muvofiq, hamda amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha e'tirozlar bildirilganda bunday e'tirozlarni qondirish bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilish vaqtigacha Qarzdorlikni so'ndirish va bankning barcha to'lovlari va xizmatlari uchun to'lovlarni to'liq hajmda amalga oshirish. Hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlar va kelishuvning ajralmas qismi va ilovasi bo'lgan Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvalida ko'rsatilgan qarzni qisman so'ndirishni vaqtida amalga oshirish.

5.2.2. Onlayn mikroqarzdandan foydalanganda kreditlashning asosiy tamoyillariga rioya qilish: onlayn mikroqarzning muddatliligi, qaytaruvchanligi va to'lanuvchanligi.

5.2.3. Hisobraqamdagi Onlayn mikroqarz uchun to'lovlar summasini to'lov sanasidan kechiktirmay ta'minlash. To'lov sanasida Hisobraqamdagi summa bank tomonidan Onlayn mikroqarz bo'yicha to'lovlarni hisobdan chiqarish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga keladi, bu haqda ma'lumot Bank tomonidan "Kredit-axborot tahliliy markazi"ga taqdim etiladiki, bu holat Mijozning kredit tarixiga salbiy ta'sir qiladi.

5.2.4. Qarz oluvchi Bankdan ma'lumot olish uchun o'zining yashash manzili, mobil telefonining (lar) raqamini, uy telefonining raqamini va ish telefonining raqamini taqdim etish majburiyatini oladi. Bankdan ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlaridan foydalangan holda olingan har qanday ma'lumot yuridik kuchga ega bo'ladi.

5.2.5. Qarz oluvchining yashash manzili, ish joyi, F. I. Sh., mobil telefonining raqami, uy telefonining raqami va ish telefonining raqami o'zgarganda, hamda oylik daromadi kamayganda yoki uning ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganda Qarz oluvchi Bankni yozma ravishda yoki o'zi uchun imkoniy bo'lgan boshqa aloqa kanallaridan foydalangan holda, 5 kun ichida xabardor qilishi shart.

5.2.6. Onlayn mikroqarz berish haqidagi Shartnomaning shartlaridan kelib chiquvchi Onlayn mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar, neustoyka va/yoki boshqa to'lovlarning to'lash muddati kelganda Bankka Mijozning Bankdagi istalgan hisobraqamidan, hamda Mijozning boshqa banklardagi hisobraqamlaridan Onlayn mikroqarz berish haqidagi shartnomada nazarda tutilgan ketma-ketlikda mablag'larni muqarrar va qaytarib bo'lmas hisobdan chiqarish huquqini berish.

5.2.7. Onlayn mikroqarz, So'ndirish jadvaliga muvofiq hisoblangan foizlarni (jarimalar) avtomatik tarzda so'ndirish uchun o'zining Bank kartasini "Avtoto'lov" xizmatiga ulash.

5.2.8. Bankning talabiga ko'ra ushbu Shartnoma doirasida beriladigan Onlayn mikroqarz (asosiy qarz va boshqa to'lovlar) bo'yicha qarzдорlikni majburiy va/yoki muddatidan ilgari undirish choralari ko'rish munosabati bilan Bank tomonidan ko'rilgan barcha xarajatlar va zararlarni qoplab berish.

5.2.9. Ushbu shartnomada/Ofertada va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majbutiyatlarni amalga oshirish.

5.3. Bank quyidagilarga haqlidir:

5.3.1. Mijozning moliyaviy holatini tekshirish. Bunday tekshiruvlarning davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.3.2. Onlayn mikroqarz Qarz oluvchi tomonidan kelishuv tuzilgan kundan e'tiboran bir oy mobaynida foydalanilmagan taqdirda, ikkinchi tarafni Shartnomani bekor qilish to'g'risida imkoniy aloqa kanallari orqali xabardor qilgan holda bir tomonlama tartibda bekor qilish.

5.3.3. Ushbu Shartnoma asosida Onlayn mikroqarz berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni Qarz oluvchidan so'rab olish. Taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchligiga shubha tug'ilgan taqdirda Bank ushbu ma'lumotlarni Qarz oluvchining ish joyiga qo'ng'iroq qilish yoki yozma so'rov yuborish orqali, uning ish joyi, daromad manbai va miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida tekshiruv o'tkazish huquqiga ega. Bunda bank bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmaydi.

5.3.4. Qarz oluvchi bankka murojaat qilganda u bilan muzokaralarni yozib borish, hamda Qarz oluvchiga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish maqsadida, bunday murojaat faktini tasdiqlash uchun yozuvlardan foydalanish.

5.3.5. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan har qanday (Sud tartibida – da'vo ariza, soddalashtirilgan tartibda ish yuritish asosida, sud buyrug'i chiqarish yoki notariusning ijro xati orqali undirish) choralarni, shu jumladan undiruvni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarz oluvchining har qanday mol-mulki va mulkiy huquqlariga qaratish huquqiga ega.

5.3.6. Qarz oluvchining har qanday, ham joriy, ham muddati o'tgan majburiyatlarini (qarzдорliklarini) so'ndirish uchun mablag'larni (qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratib bo'lmaydigan mablag'lardan tashqari) bank tomonidan Qarz oluvchining farmoyishi va rozilgisiz

uning hisobidan ushlab qolish yo‘li bilan (akseptsiz tartibda), Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq hisobdan chiqarish:

- Qarz oluvchining istalgan banklarda va/yoki bank amaliyotlarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ochilgan bank hisobraqamlariga to‘lov talabnomalari va topshiriqlarini taqdim etish yo‘li bilan;
- Qarz oluvchining istalgan banklarda va/yoki bank amaliyotlarining ayrim turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ochilgan bank hisobraqamlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash (hisobdan chiqarish) yo‘li bilan.

5.3.7. Shartnoma bo‘yicha boshqa istalgan majburiyatlar bajarilmagan, hamda ularning yuzaga kelishining real tahdidi paydo bo‘lgan taqdirda, Ushbu Ilovaning 5.3.5, 5.3.6-bandlarida ko‘rsatilgan choralarni qo‘llash va/yoki ushbu Shartnomani muddatidan ilgari avval bekor qilish, jumladan quyidagi hollarda:

- Qarz oluvchida Onlayn mikroqarz bo‘yicha navbatdagi to‘lovni so‘ndirish uchun mablag‘ bo‘lmagan/yetarli bo‘lmagan va ularning kelib tushish istiqbollari yo‘q bo‘lgan taqdirda;
- Shartnoma tuzishda yoki qarz amaliyotlarini amalga oshirishda Qarz oluvchi tomonidan ishonchsiz ma‘lumotlar taqdim etilganlik fakti aniqlanganda;
- Qarz oluvchi sud jarayoniga jalb etilgan va/yoki Qarz oluvchining mol-mulki va/yoki uning hisobraqami xatlangan yoki ularga undiruv qaratilgan (yoki buning real tahdidi mavjud bo‘lsa) taqdirda;
- Qarz oluvchining psixonevrologiya dispanserlari, psixiatriya klinikalari yoki giyovand moddalarga yoki spirtli ichimliklarga qaramlikni davolash klinikalariga joylashtirilganligi to‘g‘risida ma‘lumot olinganda;
- Bankning fikricha Qarz oluvchining to‘lov qobiliyatiga va uning Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa hollarda, Qarz oluvchining qarz yukini oshirib yuborishdan qochish maqsadida;
- Onlayn mikroqarzni so‘ndirish muddati so‘ndirish jadvaliga ko‘ra 3 (uch) yoki undan ko‘p marta ketma-ket yoki alohida-alohida tarzda oxirgi 12 oy davomida buzilganda (bunda ketma-ket 3-marta yoki alohida-alohida tarzda buzilish ahamiyatga ega emas);
- Onlayn mikroqarzni o‘z vaqtida qaytarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday obyektiv yoki subyektiv vaziyatlar yuzaga kelganda;
- Qarz oluvchi asosiy qarzni va u bo‘yicha foizlarni kechiktirish yuzaga kelgan paytdan e‘tiboran 30 kun ichida to‘lamasa, ya‘ni onlayn mikroqarz bo‘yicha kechiktirish mavjud bo‘lsa;
- Qarz oluvchi tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha neustoyka to‘lanishi Bankni o‘zining buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

5.3.8. Onlayn mikroqarzni o‘z vaqtida qaytarishga salbiy ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan vaziyat yuzaga kelgan taqdirda Bank xabar berish tartib-tamoyilini qo‘llaydi, ya‘ni Qarz oluvchiga qarzdorlikni quyidagi yo‘llar bilan qaytarish haqida xatlar, xabarnomalar, yozma e‘tiroz/talablar yuboradi:

- mobil telefon raqamiga (mobil ilovada ro‘yxatdan o‘tkazilgan);
- Qarz oluvchi tomonidan ko‘rsatilgan manzillarga.

5.3.9. Ushbu shartnomada/Ofertada va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

5.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

5.4.1. Onlayn mikroqarzni Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnomada belgilangan muddatdan ilgari, istalgan vaqtda, jarima sanksiyalari qo'llanmagan holda so'ndirish.

5.4.2. Onlayn mikroqarz olish bo'yicha Qonunchilik va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar olish.

5.4.3. Qarz oluvchining arizasi ma'qullangandan so'ng, pul mablag'larini bepul asosda haqiqatdan olgunga qadar onlayn mikroqarzni olishdan bosh tortish.

5.4.4. Majburiyatlarning Shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish.

5.4.5. O'z huquq va majburiyatlari, hamda ushbu Shartnoma asosida Onlayn mikroqarz olish bilan bog'liq, Bank tariflariga muvofiq xarajatlar haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlar olish.

5.4.6. Onlayn mikroqarzni Masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda so'ndirish.

5.4.7. Onlayn mikroqarzni so'ndirish usullari va turlarini (differensial yoki annuitet) va uning muddatini mustaqil ravishda tanlash.

5.4.8. Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnomani Bank bilan uzil-kesil hisob-kitob qilish va bankka Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizani taqdim etishda qarzдорlikni to'liq so'ndirish sharti bilan istalgan vaqtda bekor qilish.

5.4.9. Ushbu shartnomada/Ofertada va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Taraflar Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun uning shartlariga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Qarz oluvchining javobgarligi:

6.2.1. Qarz oluvchi Onlayn mikroqarz, u bo'yicha foizlar, komissiyalar va boshqa to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi, shuningdek Qarz oluvchi majburiyatlarining bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi bilan chaqirilgan qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlari va bankning boshqa zararlarining qoplanishi uchun barcha mol-mulki bilan Bank oldida javobgar bo'ladi.

6.2.2. Onlayn mikroqarzni (muddati o'tgan kredit) qaytarish kechiktirilganda Bankka kechiktirishning butun davri uchun individual shartlarda belgilangan foizning 1,5 baravari miqdorida to'lash.

6.2.3. Onlayn mikroqarzni asosiy mablag'lari o'z vaqtida so'ndirilmagan va u bo'yicha kechiktirilgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi bankka har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan qarzdorlikning 0,4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

6.2.4. Hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan va ular bo'yicha kechiktirilgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi bankka har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan qarzdorlikning 0,4 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

6.2.5. Qarz oluvchi bankka soxta va yolg'on ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etganligi, shuningdek ularning o'zgarishlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilmaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.3. Bankning javobgarligi:

6.3.1. Onlayn Mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank Ommaviy oferta va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

6.3.2. Bank onlayn mikroqarzdin foydalangan holda o'z nazoratidan tashqarida yuzaga kelgan nizoli va ixtilofli vaziyatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3.3. Bank ushbu umumiy qoidalarining texnik uzilishlar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining o'chirilishi/shikastlanishi, To'lov tizimlari ishidagi texnik uzilishlar), Mijoz tomonidan hisobraqamga pul mablag'larini o'tkazish uchun rekvizitlarning noto'g'ri ko'rsatilganligi/to'liq ko'rsatilmaganligi, shuningdek, fors-major holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7. SHARTNOMA MUDDATI

7.1. Ushbu Ilovaning qoidalari Mijoz ushbu Ofertani qabul qilgan, shuningdek, taraflar o'rtasida individual shartlar bo'yicha kelishuv tuzilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va taraflarning Onlayn mikroqarz bo'yicha o'zaro majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

8. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Nizolarni hal qilish tartibi:

8.1.1. Taraflar tomonidan Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha masalalar taraflar tomonidan o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.1.2. O'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal etilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq vakolatli organlar orqali hal etiladi.

8.2. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Qarz oluvchi Bankka o'zining shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, ishlash, saqlash, foydalanish va transchegaraviy uzatishga, shuningdek Bankka murojaat qilganda quyidagi maqsadlarda muzokaralarni yozib borishga o'z roziligini beradi:

- Qarz oluvchi tarafi, manfaat oluvchi yoki manfaatdor shaxs bo'lgan Shartnomalarni tuzish va bajarish;
- majburiyatlarni bajarishga yoki qarzdorlikni undirishga majburlash; Qarz oluvchining huquq va majburiyatlarining lozim darajada amalga oshirilishini ta'minlash;
- firibgarlikning oldini olish maqsadida taqdim etilgan ma'lumotlarni verifikatsiya qilish;
- Qarz oluvchini, uning ish beruvchisini yoki har qanday uchinchi shaxsni Shartnomalarni bajarish bilan bog'liq masalalar haqida xabardor qilish.

8.3. Qarz oluvchi ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha masalalar bo'yicha o'zining Abonent raqami, shuningdek o'zi taqdim etgan boshqa manzillarga (rekvizitlarga) SMS-xabarnomalarni olishga muqarrar va so'zsiz roziligini beradi.

8.4. Qarz oluvchi bankka quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun muqarrar va so'zsiz huquq va rozilik beradi:

- "Kredit axborot-tahlil markazi" kredit byurosiga Shartnoma shartlariga taalluqli ma'lumotlarni taqdim etish;
- Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasi yuzasidan Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan Abonent raqamlariga telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, manzillariga (rekvizitlariga) xatlar, elektron va SMS xabarlarini yuborish;
- Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasi yuzasidan Qarz oluvchi bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish.

8.5. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha masalalar bo'yicha Qarz oluvchi bankka quyidagi aloqa kanallari orqali murojaat qilishi mumkin:

- Call-markaz Aloqa markazi raqamlari: 08001200200, qisqa raqam – 1256 (uyali aloqa operatori tarifiga muvofiq to'lovlar olinadi);
- elektron pochta orqali: info@hamkorbank.uz; muloqot@hamkorbank.uz.

8.6. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda Bank tomonidan yuborilgan SMS-xabarnomalar, qo'ng'iroqlar va xabarnoma-xatlar qarzdorlikni qaytarish bo'yicha ogohlantirish chora-tadbirlari sifatida ko'riladi va sud va boshqa organlarda muddatidan ilgari undirish uchun asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

8.7. Ushbu umumiy qoidalarda va Onlayn mikroqarz berish to'g'risidagi shartnomaning shartlarida qayd etilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8.8. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda uning barcha huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) merosxo'rlariga o'tadi.

BANK KARTALARINI FOYDALANISHGA BERISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH

(Bank tarmoqlariga shaxsan tashrif buyurgan holda berilgan arizalarga nisbatan)

1. Asosiy tushunchalar

1.1. **Avtorizatsiya** - karta bilan operatsiyalarni bajarishda tovar va xizmatlarga to'lovni amalga oshirish uchun bank karta foydalanuvchisi huquqining tasdiqlanishi. Avtorizatsiya ovozli (telefon aloqasidan foydalangan holda) va avtomatlashgan (elektron qurilmadan foydalangan holda) avtorizatsiyalarga bo'linadi.

1.2. **Bank kartasi (BK)** - bank tarafidan emissiya qilingan, personalizatsiyalangan, to'lov vositasi sifatida ishlatiladigan va o'z saqlovchisiga bank hisobvarag'idagi mablag'lari doirasida operatsiyalarni, jumladan, hisobvaraqq orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni (to'lovlarni) amalga oshirish, undan naqd pul mablag'larini olish imkonini beruvchi amaldagi to'lov kartasidir.

1.3. **Bank ish kuni** - O'zbekiston Respublikasidagi banklar bank operatsiyalarini o'tkazish uchun ochiq bo'lgan kun.

1.4. **Kartaning bekor qilinishi** - karta kuchini yo'qotgan deb tan olinishi.

1.5. **Kobeydjing (Birlashtirilgan) bank kartasi** - ikki va undan ortiq to'lov tizimlariga birlashgan, O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlar banklari (emitentlari) tomonidan emissiya qilingan va har xil to'lov tizimlari infratuzilmalarida foydalanish uchun mo'ljallangan bank kartasidir. foydalanuvchisi BK foydalanuvchisi bankdagi hisob raqami bo'yicha amalga oshirish mumkin bo'lgan operatsiyalarning turlari BK foydalanuvchisi foydalanuvchisi va emitent o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan o'rnatiladi.

1.6. **Emissiya** - Bank kartalarini foydalanuvchiga vaqtinchalik foydalanishga berish orqali muomalaga chiqarish.

1.7. **Emitent bank** - bu BK emissiyasini amalga oshiruvchi, o'zi emissiya qilgan bank kartalariga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan, o'z nomidan ularning saqlovchilari va ekvayerlar oldida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid qonunchilik hujjatlari talablari asosida majburiyatlarni zimmasiga olgan, shuningdek BK saqlovchilarining to'lov operatsiyalari bo'yicha avtorizatsiyalash, tranzaksiyalarni yig'ish va ularga ishlov berish funksiyalarini amalga oshiruvchi bank.

1.8. **Ekvayer** - BK orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha tovarlar (ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi) sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi, shuningdek BK saqlovchisiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul beruvchi bank.

1.9. **Bank kartasi foydalanuvchisi (yoki Mijoz)** - arizasiga asosan karta hisobvarag'i ochgan, BK bo'yicha to'lov operatsiyalarini amalga oshirish hamda BK va karta hisobvarag'ini yopish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs. BK bank tarafidan BK foydalanuvchisi vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi va bankning mulki hisoblanadi.

1.10. **Karta hisobvarag'i (KH)** - BK orqali pul mablag'larini tasarruf etish mumkin bo'lgan bank hisobvarag'i.

1.11. **Saqlovchisi** - Bank tomonidan emissiya qilingan hamda foydalanuvchiga mazkur shartnoma asosida topshirilgan BKni, foydalanuvchi tomonidan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan shakllarda va usullarda foydalanishga berish uchun vakolat berilgan shaxs.

1.12. **PIN-kod** - BK foydalanuvchisi shaxsiy identifikatsion raqami bo'lib, u KHdagi pul mablag'larini boshqarish huquqini hamda mablag'larni boshqarishga BK foydalanuvchisi tomonidan ruxsat berilganligini tasdiqlaydi.

1.13. **Stop-list** - bloklangan yoki bank tarafidan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish vaqtincha to'xtatib turilgan yoki butunlay to'xtatilgan bank kartalari ro'yxati.

1.14. **Tranzaksiya** - BK saqlovchisi tarafidan amalga oshiriladigan, uning bankdagi hisobvarag'i debetlanishiga olib keladigan har qanday operatsiyalar.

1.15. **To'lovlarni qaytarish** - bank tarafidan belgilangan shaklda BK foydalanuvchisining KHni kreditlash uchun tranzaksiyalar borasida tarafidan amalga oshiriladigan pul mablag'larining har qanday qaytarilishi ma'nosini bildiradi.

1.16. **To'lov tizimi** – emitent banklar, BK lariga xizmat ko'rsatuvchi banklar, ekvayer va protsessing tashkilotlarini yagona tizimga birlashtiruvchi naqd pulsiz to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish uchun mo'ljallangan, huquqiy me'yorlar, me'yoriy hujjatlar, dasturiy-texnik yechimlar, shuningdek, tegishli tashkiliy-texnik infratuzilma majmuiga asoslangan va asosiy unsuri bank kartasi hisoblangan hududiy tarqoq to'lov tizimi.

1.17. **Protsessing tashkiloti** — to'lov tashkiloti a'zolari o'rtasida axborotni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish, shuningdek, to'lov tashkiloti a'zolari tomonidan -amalga oshiriladigan emissiya va (yoki) ekvayringga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi yuridik shaxs. Yagona umumrespublika protsessing markazi, Milliy banklararo protsessing markazi va boshqa xalqaro protsessing markazlari.

1.18. **To'lov tashkiloti a'zosi** — tegishli to'lov tashkiloti bilan shartnomaga asosan bank kartasi emissiyasi va (yoki) ekvayringini amalga oshiruvchi bank.

1.19. **Asosiy karta** – BK foydalanuvchisi tomonidan arizada asosiy karta deb belgilangan va shartnoma doirasida BK foydalanuvchisi (hisobraqam foydalanuvchisi) nomiga chiqarilgan karta.

1.20. **Qo'shimcha karta** –KHdan foydalanish huquqini beruvchi BK foydalanuvchisi arizasida ko'rsatilgan boshqa shaxs nomiga yoki o'zining nomiga chiqarilgan BK.

1.21. **Karta ma'lumotlari** – Kartada ko'rsatilgan ma'lumotlar: karta raqami, amal qilish muddati, BK foydalanuvchisi Saqlovchining ismi va familiyasi (lotincha xarflar bilan yozilgan), CVN (CVV/SVC) kodi.

1.22. **CVN (CVV/CVC) kod** — bank kartasining maxfiy raqami bo'lib, internet orqali to'lovlarni amalga oshirishda ishlatiladi.

1.23. **Ko'chirma** – BK hisobraqami bo'yicha Bank tomonidan BK foydalanuvchisining so'roviga ko'ra shakllantiriladigan ko'chirma.

1.24. **Qoidalar** – To'lov tizimlari tomonidan o'rnatilgan Qoidalar.

1.25. **Ssuda hisobvarag'i** – kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun BK foydalanuvchisining nomiga ochilgan hisobvaraq.

1.26. **Garov depoziti** – BKda mavjud mablag'dan ortiqcha miqdorda foydalanilgan mablag'ni qoplash uchun va KH yopilgandan so'ng 1 (bir) oy mobaynida BK foydalanuvchisiga qaytariladigan, bank tarifida ko'rsatilgan pul mablag'i miqdori.

1.27. **Ssuda hisobvarag'i** – kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun BK foydalanuvchisining nomiga ochilgan hisobvaraq.

1.28. Ushbu shartnomada BK yoki "Karta hisobvarag'i" so'zlari qo'llanganda, ular BK foydalanuvchisining KH bo'yicha berilgan barcha BKlar uchun qo'llanadi.

1.29. **"SMS xizmati"** - karta hisobvarag'idagi o'zgarishlar bo'yicha mijozning mobil telefoniga yuboriladigan xabarlar xizmati.

1.30. **"Bank tarifi"** - BK bo'yicha operatsiyalarga tegishli to'lovlar va vositachilik xaqlarining barcha turlari hamda miqdorlari belgilangan amaldagi bank tarifi (www.hamkorbank.uz).

1.31. **Bank tarmoqlari** – Bankning O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan tarkibiy tuzilmalar, shu jumladan mintaqaviy, universal, bank xizmatlari ofislari/ Boshqarmalar/Bo'linmalar.

2. Shartnomaning predmeti (Umumiy qoidalar)

2.1. Mazkur shartnoma Bank tarafidan BK orqali o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish yuzasidan Bank bilan BK foydalanuvchisi o'rtasida o'zaro munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Bank BK foydalanuvchisi vaqtincha foydalanishga beradi va bank kartasi yordamida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

2.3. BK foydalanuvchisi bank xizmatlarini ushbu shartnomaning shartlariga muvofiq to'laydi.

3. Shartnoma shartlari

3.1. Taraflar mazkur shartnoma bo'yicha o'zlarining yuridik manzili, (doimiy ro'yhatdan o'tgan manzili), ismi, sharifi, familiyasi va uyali aloqa raqami(lari), pasport ma'lumotlari (tarafarning rekvizitlari) shartnomaning muhim sharti deb belgilab olishdilar.

3.2. Bank BK emissiyasini jismoniy shaxslar tomonidan mazkur shartnomani to'liq hajmda qabul qilish to'g'risidagi arizaga ko'ra Qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank va boshqa tegishli vakolatli organlar talablari asosida amalga oshiradi.

3.3. BK shartnoma tuzilgan paytdan boshlab 3 (Uch) ish kuni mobaynida, ushbu shartnomaning shartlariga muvofiq Bank tarifida ko'zda tutilgan summalar to'lanishi sharti bilan emissiya qilinadi.

3.4. BK foydalanuvchisi mazkur shartnomani to'liq xajmda qabul qilish to'g'risidagi arizani tegishli bank tarmoqlariga taqdim qilishi bilan zarur hollarda ssuda hisobraqamini ochishga roziligini bildirgan hisoblanadi.

3.5. KH bo'yicha ma'lum davrga oid ko'chirma, faqat BK foydalanuvchisining arizasiga binoan taqdim qilinadi.

3.6. BK To'lov tizimi tomonidan o'rnatilgan, lekin virtual kartalar 2 (ikki) yildan oshmagan muddatga, xalqaro Visa, UnionPay hamda Uzcard va Humo tizimidagi kartalar 5 (besh) yildan oshmagan muddatga beriladi.

3.7. BKni olish uchun bankda milliy so'm yoki xorijiy valyuta (AQSH dollari yoki Yevro) da KHni ochish lozim.

3.8. KHni bloklanishi KH bo'yicha operatsiya o'tkazilishini to'xtatishga olib keladi hamda ushbu KH bo'yicha ochilgan barcha BKlardan foydalanish huquqini yo'q qiladi.

3.9. Bloklangan BK bo'yicha operatsiya o'tkazilishini to'xtatish ushbu KH bo'yicha ochilgan boshqa BKlardan foydalanish huquqini yo'q qilmaydi.

3.10. KHning yopilishi ushbu KH bo'yicha ochilgan barcha BK larning yopilishiga olib keladi.

3.11. BK foydalanuvchisi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Bank oldidagi majburiyatlari yuzasidan, shuningdek Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda BK foydalanuvchisi nomiga rasmiylashtirilgan barcha KHlar orqali pul mablag'larini yechib olishga roziligini bildiradi. Bank tomonidan BK va KH yopish to'g'risida ariza qabul qilingandan so'ng bank to'lov topshiriqnomasi bo'yicha kelib tushgan pul mablag'larini karta hisobraqamiga kirim qilmaydi. Bunday to'lovlar bank tomonidan to'lovchining ma'lumotlari bo'yicha qaytariladi.

3.12. Emissiya qilingan BKni mijoz bank ofisiga tashrif buyurgan holda yoki kuryer orqali yetkazib berilishini tanlash huquqiga ega.

3.13. BK emissiya qilingan sanadan boshlab BK foydalanuvchisi tomonidan bankdan 3 (oy) mobaynida olib ketilmagan taqdirda, BK yo'q qilinadi va bank tarifi asosida olingan ustama xaqi BK foydalanuvchisiga qaytarilmaydi.

3.14. BKni qayta chiqarish BK foydalanuvchisining arizasi asosida BK foydalanuvchisi tomonidan bankdan olib ketilmagan BKning muddati tugagunga qadar bank tomonidan yangi muddatga qayta chiqarilishi mumkin.

3.15. BK foydalanuvchisi tomonidan bankdan olib ketilmagan BKning ishlash muddati tugaganda yangi muddatga BK qayta chiqarilmaydi.

3.16. BK foydalanuvchisining nomiga qo'shimcha BK uning arizasi asosida asosiy BK bilan birga yoki asosiy BK chiqarilganidan so'ng chiqarilishi mumkin.

3.17. BKning muddati tugamasdan turib BKni qayta chiqarish uchun zaruriyat tug'ilganda BKni qayta chiqarish uchun bankka ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

3.18. BK yangi ishlatish muddati bilan chiqariladi va ushbu BK muddati BK chiqarilgan oydan boshlanadi.

3.19. BKni yo'qotish/sindirish, BK ning mexanik shikastlanishi, BK foydalanuvchisining BKda ko'rsatilgan familiyasi va/yoki ismi o'zgarishi va muddati tugaguncha boshqa sabablarga ko'ra BKning qayta chiqarilishi BK foydalanuvchisining arizasi asosida Bank tariflarida ko'rsatilgan tegishli ustama haqi olinishi sharti bilan amalga oshiriladi.

3.20. Garov depoziti bank tarifiga asosan KHga kirim qilingan birinchi mablag‘dan ushlab qolinadi. Garov depoziti uchun birinchi kirim qilingan pul mablag‘i yetmagan taqdirda keyingi kirim qilingan pul mablag‘idan ushlab qolinadi.

3.21. Shartnoma shartlariga muvofiq, KHga kirim qilingan pul mablag‘laridan haq olinishi mumkin.

3.22. BK foydalanuvchisi BKni yo‘qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti aniqlanishiga darhol bu haqda Bankka 0 800 1 200 200 yoki 1256 (O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab pullik) qisqa raqamli telefon orqali bog‘lanib xabar beradi va o‘zining shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport/ID karta, yoki kodli so‘zni taqdim etish) orqali tegishli ma‘lumotlarni taqdim qiladi. Bunda BK yo‘qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risida xabarnoma olinganidan keyin Bank darhol BKni blok xolatiga o‘tkazadi.

BK foydalanuvchisi BKni yo‘qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi fakti aniqlanishiga mustaqil ravishda “Hamkorbank” mobil ilovasi orqali ham BKni vaqtinchalik blok xolatiga o‘tkazishi mumkin.

3.23. BK foydalanuvchisi to‘lov xizmatlari haqidagi axborotni hamda mazkur shartnoma yuzasidan vujudga kelishi mumkin bo‘lgan masalalar yuzasidan tunu kun mobaynida 0 800 1 200 200 yoki 1256 (O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab pullik) raqam orqali olishi mumkin.

3.24. BK foydalanuvchisi mazkur shartnomani to‘liq xajmda qabul qilish to‘g‘risidagi arizada ko‘rsatib o‘tgan telefon raqami orqali Bank bilan aloqa bog‘lash vositasi sifatida kelishib olganligini anglatadi.

3.25. BK foydalanuvchisi BKga tegishli bo‘lgan rekvizitlarni, shu jumladan 16 raqamdan iborat bo‘lgan Karta raqami amal qilish muddati (xalqaro to‘lov tizimlariga hos bo‘lgan CVN (CVV/SVC) kodlar) elektron to‘lov tizimlari orqali BK foydalanuvchisi ko‘rsatgan aloqa vositasiga yuborilgan maxfiy tasdiqlash kodini (shu jumladan har qanday uchinchi shaxslar tomonidan BK foydalanuvchisining aloqa qurulmasiga kelib tushgan tasdiqlash kodlari) hech kimga oshkor qilmasligi hamda aloqa qurulmasii uchinchi shaxslarga topshirganida BKdan foydalanish huquqini beruvchi mobil ilovalarni maxfiy kod bilan himoyalash choralari ko‘rishi zarur.

3.26. BK yuzasidan amalga oshiriladigan to‘lovlar uch ish kundan yigirma besh ish kuniga qadar bo‘lgan muddat ichida to‘lov tizimlarida amalga oshiriladi (Clearing)

3.27. BK foydalanuvchisi mazkur shartnomani to‘liq xajmda qabul qilish to‘g‘risidagi arizani Bankka taqdim qilish bilan birga Bank tomonidan tariflarga o‘zgartirish kiritib borilishiga roziligini bildiradi.

3.28. Xalqaro bank kartalari uchun ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan masalalar xalqaro to‘lov tizimlarining talablari asosida tartibga solinadi.

4. Taraflarning majburiyatlari

4.1. BK foydalanuvchisi quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

4.1.1. Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq BKdan foydalanish.

4.1.2. BK PIN-kodini belgilash, almashtirish va uni hech kimga ma‘lum qilmaslik.

4.1.3. Agar PIN-kod uch marta noto‘g‘ri kiritilgan bo‘lsa, BK foydalanuvchisi darhol emitentga ariza bilan murojaat qilishi va o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etish.

4.1.4. Mazkur shartnoma o‘z kuchini yo‘qotgandan keyin BKni hech qanday shartlarsiz bankka qaytarish.

4.1.5. Bank xizmat haqlarini belgilangan tariflar doirasida to‘lash.

4.1.6. Emitent bank hamda to‘lov tizimi dasturlaridagi texnik nosozliklar va xatoliklar natijasida BKda ortiqcha mablag‘lar yoki onlayn platformalar orqali BK da manfiy qoldiqlar hosil bo‘lib qolsa, ushbu mablag‘larni emitent bankka qaytarish yoki qoplab berish.

4.1.7. Shartnomaning majburiy shartlariga rioya qilish:

a) uyali aloqa raqami o‘zgartirgan taqdirda, bu haqda darhol Bankka yozma xabar berish;

b) turar joyi va/yoki pasport ma'lumotlari, ismi sharifi familiyasi o'zgartirish, shuningdek karta yo'qotilgan yoki o'g'irlangan taqdirda, darhol Bankka yozma/yoki elektron xabar berish.

c) bank kartalaridan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq amaliyotlarni bajarish, shuningdek uchinchi shaxslarga bunday foydalanishga imkoniyat bermaslik.

d) noqonuniy moliyaviy operatsiyalar va noqonuniy savdo faoliyati bilan shug'ullanmaslik.

e) amaldagi qonunchilikda ta'qiqlangan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarda bank kartasidan foydalanmaslik va boshqa holatlar.

4.1.8. PIN-kodli konvertning berilishida, BK foydalanuvchisi PIN-kodli konvertga tashqi shikast yetkazilmaganligini tekshirish.

4.1.9. BK foydalanuvchisi qo'shimcha BK Saqlovchisini ushbu shartnoma shartlari va bank tarifi bilan tanishtirish.

4.1.10. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli hujjatlarni bankning talabiga binoan taqdim etish; Bankning so'rovi, tegishli hujjatlarni taqdim etish;

4.1.11. Mijoz "Hamkorbank" mobil ilovasi orqali Visa-Direct/Visa Alias xizmatidan foydalangan holda boshqa bank Visa kartalariga mablag' yuborishda mablag' qabul qilib oluvchi ma'lumotlarini bank kartasi ustki qismidagi ma'lumotlar bilan bir xil bo'lishini ta'minlash.

4.1.12. "Hamkorbank" mobil ilovasi orqali Visa-Direct xizmatidan foydalanishda mablag' qabul qilib oluvchi mijoz ma'lumotlari kiritish jarayonida turli xil sonlar, belgilar va turli aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar kiritilishida mijoz javobgar bo'ladi.

4.1.13. Bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida qasddan yoki qasddan bo'lmagan holda noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qilish, jumladan, mobil ilovaga noto'g'ri ma'lumotlarni, o'ylab chiqarilgan va hujjatlar bilan tasdiqlanmagan nomlarni kiritish natijasida bankka yetkazilgan zararlar miqdorida javobgar bo'ladi.

4.1.14. Harakatsiz omonatlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish omonatchi tomonidan to'liq yoki qisman talab qilinganda, bank rahbari nomiga harakatsiz omonat hisobvarag'ini tiklash bo'yicha yozma ariza taqdim qiladi. Harakatsiz omonat hisobvarag'i bo'yicha barcha operatsiyalar omonatchi yoki uning qonuniy vakilining shaxsini tasdiqlovchi hujjati tekshirilgan holda arizasiga asosan amalga oshiriladi.

4.2. **Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**

4.2.1. BK foydalanuvchisining KHni BK bo'yicha amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalari bo'yicha tegishli buxgalteriya amaliyotlarini amalga oshiradi..

4.2.2. Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan to'lov hujjatlari olingan kundan e'tiboran bir bank ish kuni ichida BK foydalanuvchisining foydasiga tushgan pul mablag'larini KHga kirim qilish.

4.2.3. BK foydalanuvchisining KHdan tranzaksiyalar bo'yicha bir ish kuni mobaynida to'lovlarni olish va hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarda ularni aks ettirish.

4.2.4. BK foydalanuvchisidan BK yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida yozma/yoki og'zaki murojaat olingan taqdirda, BKdan foydalangan holda operatsiyalarning amalga oshirilishini to'xtatib qo'yish choralari ko'rish.

4.2.5. BK foydalanuvchisiga BKga xizmat ko'rsatish bo'yicha undiriladigan vositachilik haqining miqdori uni undirish tartibi to'g'risida xabardor qilish.

4.2.6. Bank BK foydalanuvchisining telefon raqamiga yoki "Hamkorbank" mobil ilovasi orqali tariflar(bank kartalarini foydalanishga berish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida ommaviy oferta)ga o'zgartirish kiritish kuchga kirishidan kamida o'n kun oldin, xabarnoma (Push) yuborish hamda o'zgartirishlarni bankning «www.hamkorbank.uz» saytiga kiritib borish.

4.2.7. Bank tomonidan BK bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda, bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda BK bo'yicha amaliyotlar to'htatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi. Xabarnoma bank kartasi foydalanuvchisining uyali aloqa raqamiga yuboriladi.

5. Taraflarning huquqlari

5.1. BK foydalanuvchisi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Karta hisobvarag'ida mavjud qoldiqni to'ldirib borish.

5.1.2. Bankdan shartnoma shartlarini bajarilishini talab qilish.

5.1.3. Bankdan karta hisobvarag'idan ko'chirmani olish. Ko'chirmada karta hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar aks ettiriladi.

5.1.4. Mazkur shartnomaning qoidalarida ko'zda tutilgan tartibda Bankka kartani (asosiy va qo'shimcha) bloklash va blokdan chiqarish to'g'risida yozma /yoki og'zaki tarzda murojaat qilish.

5.1.5. Bankni yozma yoki elektron tarzda 10 kun oldin xabardor qilgan holda mazkur shartnomani bekor qilish.

5.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. BK foydalanuvchisi BK uchun xizmat haqini ixtiyoriy to'lamagan taqdirda, karta hisobvarag'idagi qoldiq summasidan chegirib qolish.

5.2.2. BK ga ko'rsatiladigan xizmat uchun bank xizmatlari tariflarini ishlab chiqish, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish. Bu haqdagi ma'lumotlarni «www.hamkorbank.uz» internet sayti orqali e'lon qilish.

5.2.3. Mijozning BK orqali naqd pul olishida belgilangan tarif asosida xizmat haqi olish.

5.2.4. Mijozning karta hisobvarag'idan naqd pulsiz o'tkazmalar, shu jumladan boshqa bank bank tarmoqlaridan va/yoki bank tarmoqlariga mablag' o'tkazilganda, qo'shimcha xizmat turlaridan foydalanganda belgilangan tarif asosida xizmat haqi olish.

5.2.5. Mijozning karta hisobvarag'ini to'ldirishda (naqd pulda, ish haqi hisobidan, omonat hisobvarag'idan, dividend, sug'urta, ijara va boshqa mablag'lar hisobidan) belgilangan bank tariflari asosida xizmat haqi olish.

5.2.6. Mijozdan bank tarifi bo'yicha oylik to'lovlar olish.

5.2.7. BK foydalanuvchisi tarafidan shartnoma shartlari buzilganda hamda BK foydalanuvchisi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, BKning harakatini to'xtatib qo'yish.

5.2.8. Mijoz tarafidan BK yo'qotilgan, shikastlangan yoki yaroqsiz holatga keltirilganda, shuningdek amal qilish muddati tugaganda almashtirib berilayotganda belgilangan tarifga asosan xizmat haqi olish.

5.2.9. Emitent bank hamda to'lov tizimi dasturlaridagi texnik nosozliklar va xatoliklar natijasida BKda ortiqcha mablag'lar hosil bo'lib qolsa, ushbu mablag'larni BK hisobvarag'idan(BK dan) ushlab qolish.

5.2.10. Agar BK Foydalanuvchisining/Saqlovchisining shaxsi gumon tug'dirsa yoki BKdan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar qonunchilikka zid bo'lsa yoki shaxsni identifikatsiyalashni talab etsa xizmat ko'rsatishni rad etish.

5.2.11. BKdan ushbu shartnoma shartlariga zid ravishda foydalanilganda karta hisobvarag'ini yopib qo'yish (BK ni bloklash).

5.2.12. BK foydalanuvchisi ariza berilgan kundan e'tiboran 3 (Uch) kalenlar oy ichida Bankka kelib BKni olmasa, BKni bekor qilish va KH ni yopish hamda to'langan xizmat ko'rsatish haqini Mijozga qaytarmaslik;

5.2.13. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq BK foydalanuvchisini lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

5.2.14. BKdan foydalangan holda operatsiyalar yoki KH bo'yicha operatsiyalar o'tkazilishini istalgan vaqtda quyidagi shartlar mavjud bo'lgan taqdirda to'xtatib turilishi (bloklanishi) yoki bekor qilinishi mumkin:

- BK Foydalanuvchisining yozma murojaati bo'yicha;

- Saqlovchi tomonidan Shartnoma yoki 2886-Qoidalar (<https://lex.uz/docs/3212192>) shartlari buzilishi holatida;

- KH bo'yicha operatsiyalar o'tkazilishi to'xtatilgan holda;
- Mazkur shartnomaning 4.1.10 bandi bajarilmaganida
- qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.15. Quyidagi shartlar bo'lganda KH va BK yopilishi mumkin:

- Shartnoma yoki Qoida shartlari buzilishi holatida;
- KH yopilishi holatida;
- bir yil davomida KHning uzluksiz foydalanilmasligi yoki KH bo'yicha tranzaksiya o'tkazilmasligida;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.16. BK foydalanuvchisi tarafidan ushbu shartnoma shartlarining buzilishi natijasida amalga oshirilgan barcha harajatlarni BK foydalanuvchisidan undirib olish.

5.2.17. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida BK operatsiyalari limitini belgilash.

5.2.18. BK foydalanuvchisining KHda bir yil (365 kun) davomida hech qanday operatsiyalar amalga oshirilmagan taqdirda Bank KH pul mablag'larini harakatsiz omonat hisobvarag'iga o'tkazish.

5.2.19. Mijoz tomonidan masofaviy xizmatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda, mijoz amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish bergunga qadar, mijozga oferta shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish yoki rad etish.

5.2.20. Mijozni ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzil (pochta manzili) yoki manzili bo'yicha o'rganish, shu jumladan masofaviy xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirishda shubha tug'ilganda ushbu shartnomada ko'rsatilgan shaxs tomonidan bevosita operatsiyani amalga oshirish jarayonini o'rganish.

5.2.21. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va qurol-yarog' tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq mijozni lozim darajada tekshirish va mijoz operatsiyalarini amalga oshirish uchun tegishli hujjatlarni talab qilish va olish.

5.2.22. O'zbekiston Respublikasining daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi normativ hujjatlariga muvofiq belgilangan talab qilingan hujjatlar va ma'lumotlar mijoz tomonidan taqdim etilmagan taqdirda mijoz bilan tadbirkorlik munosabatlariga kirishishni yoki mijoz operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish. jinoyatdan, terrorizmni moliyalashtirishdan va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishdan yoki ushbu me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.23. Mijoz tomonidan qasddan yoki qasddan bo'lmagan holda noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qilinganligi yoki mobil ilovaga noto'g'ri ma'lumotlar, o'ylab chiqarilgan va hujjatlar bilan tasdiqlanmagan nomlar kiritilganligi aniqlanganda, mijoz xizmat ko'rsatishni butunlay yoki vaqtincha to'xtatish.

5.2.24. Mijoz tomonidan shartnoma talablari buzilgan taqdirda bank kartasini bloklab qo'yish;

5.2.25. Mijoz tomonidan shartnoma talablari buzilganligi to'g'risida shubha paydo bo'lganda, shartnoma talablari buzilganligiga aniqlik kiritilgunga qadar bank kartasini vaqtincha bloklab qo'yish;

5.2.26. Bank kartalari bo'yicha milliy va xalqaro to'lov tizimlarining emissiya tartibi o'zgargan taqdirda shartnomaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

5.2.27. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan bank hisobvaraqlarni ochish va ulardan foydalanish tartibi o'zgargan taqdirda shartnomaga bir tomonlama o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

5.2.28. Mijoz arizasiga asosan xalqaro valyutadagi bank kartasini stop-listga qo'yilgandan so'ng, bank tarifiga asosan mavjud sug'urta depozitini 3 (uch) bank ish kunidan so'ng, agar boshqa to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lmasa mijozga qaytarish.

6. Shartnoma bahosi va hisob-kitob qilish tartibi.

6.1. Mijoz bank tarafidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bank tariflarida belgilangan miqdorlarda xizmat haqi to'laydi.

7. Taraflarning javobgarligi

7.1. BK foydalanuvchisi quyidagilar uchun javobgardir:

7.1.1. Mazkur shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, bankka yetkazilgan zararni to'liq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi va to'laydi.

7.1.2. BK foydalanuvchisi/Saqlovchisi PIN-kodini boshqa shaxsga bildirgan bo'lsa, ushbu karta orqali amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun BK foydalanuvchisi/Saqlovchisi javobgardir.

7.1.3. KHga xato kiritilgan pul mablag'larini qaytarmaganlik uchun – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi;

7.1.4. BK foydalanuvchisi bankka taqdim etiladigan barcha ma'lumotning haqqoniyligi uchun to'liq javobgar.

7.1.5. BK foydalanuvchisi tarafidan shartnoma bekor qilingan taqdirda, u shartnoma bekor qilinishiga qadar amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalar yuzasidan va shartnoma bekor qilingandan so'ng BK Bankga o'z vaqtida qaytarilmagan holatda to'liq javobgar bo'ladi.

7.2. Bank qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan BK bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish muddatlari buzilgan taqdirda, u muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lash.

7.3. KH bo'yicha xato amalga oshirilgan operatsiyalarda Bank javobgarligi xato amalga oshirilgan operatsiyani bekor qilish bilan cheklanadi.

7.4. Bank quyidagi hollarda BK foydalanuvchisi oldida javobgar bo'lmaydi:

7.4.1. BK foydalanuvchisi/Saqlovchisi tomonidan qonunchilikka zid harakatlar sodir etilgan taqdirda;

7.4.2. BK yo'qolishi va/yoki PIN-kod oshkor etilishi BK foydalanuvchisining ehtiyotsizligi yoki BK bilan ehtiyotsiz muomalasi tufayli yoki mazkur shartnomaning 3.25-bandida nazarda tutilgan himoya choralari buzilishi oqibatida yuz bergan bo'lsa;

7.4.3. BKlari orqali o'tkazilgan tranzaksiyalarga;

7.4.4. BK Foydalanuvchisi/Saqlovchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar bo'yicha uchinchi shaxsga mustaqil ravishda pul mablag'ini o'tkazganda yoki foydalanuvchisining/Saqlovchining roziligi bilan pul mablag'ini o'tkazish natijasida uchinchi shaxsning firibgarlik harakatlariga;

7.4.5. Nizoli holat yuzaga kelishi oqibatida ya'ni nazoratdan tashqari doirada bo'lishi, tashqi to'lov tizimining to'xtab qolishi, hisob-kitoblar, qayta ishlash va ma'lumotlarni uzatish bilan bog'liq bo'lganda;

7.4.6. uchinchi tomonning BKga xizmat ko'rsatishdan voz kechishi;

7.4.7. BK bo'yicha xarid qilingan tovarlar va xizmatlarning sifati;

7.4.8. uchinchi tomon tarafidan belgilangan, BK foydalanuvchisining manfaatlariga dahl qilishi mumkin bo'lgan BK bo'yicha limitlar, cheklashlar va qo'shimcha haqlar;

7.4.9. Bank yo'qolgan BKni (Asosiy yoki Qo'shimcha) Stop-Listga qo'yish haqida o'z vaqtida ogohlantirmaslikning oqibatlari;

7.4.10. BK foydalanuvchisi/Saqlovchisi tomonidan CVN (CVV/CVC) kodlarni uchinchi shaxsga berilganda;

7.4.11. Bank BK yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi yoxud BKdan uchinchi shaxslar foydalanganligi natijasida mijozga yetkazilgan har qanday moliyaviy zararlar uchun ham javobgar hisoblanmaydi.

7.5. Bank quyidagi hollarda jarima to'lashdan ozod qilinadi:

7.5.1. Fors – major holatlari, shu jumladan, banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilish holatlarida;

7.5.2. Bank mijoz tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;

7.5.3. Qonunlarda belgilangan tartibga bank yoki mijoz KH bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda yoki bekor qilinganda.

7.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibga solinadi.

7.7. BK foydalanuvchisi BKsi yo'qolganligi yoki bank kartasidan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida Bankni xabardor qilmagan taqdirda barcha tavakkalchiliklar BK foydalanuvchisining zimmasida bo'ladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

8.1. Mazkur shartnoma 5 (Besh) yil muddatga tuziladi. 5 (Besh) yildan so'ng shartnomani bekor qilish bo'yicha taraflardan yozma murojaat bo'lmasa yoki shartnoma shartlari bo'yicha taraflarning yozma e'tirozi bo'lmasa, shartnomaning amal qilish muddati keyingi kalendar yiliga uzaytirilgan hisoblanadi.

8.2. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Bank KH bo'yicha operatsiyani to'xtatadi. KH mavjud pul mablag'lari qoldig'i BK foydalanuvchisining tegishli yozma arizasiga asosan boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi yoki kartadan foydalanish muddati keyingi 5 (Besh) yilga uzaytirilgan taqdirda, hisobvaraqa bo'yicha operatsiyani tiklab beradi.

8.3. Bank o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin BK foydalanuvchisini telefon raqamiga xabarnoma yuborish yoki bankning mobil ilovasi orqali push xabarnoma yuborish hamda «www.hamkorbank.uz» bankning veb-saytida e'lon berish orqali mazkur shartnoma shartlarini amaldagi qonunchilik doirasida o'zgartirish va qo'shimcha kiritishi mumkin.

8.4. BK foydalanuvchisi BKni bankka topshirgach, istalgan vaqtda ushbu shartnomani bekor qilishga haqli.

8.5. Bank mijozni 30 kun avval yozma, shu jumladan elektron hamda BK foydalanuvchisining telefon raqamiga xabarnoma yuborgan holda shartnomani bekor qilishi mumkin.

8.6. Mazkur shartnoma taraflar uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi va Mijoz tomonidan Mazkur shartnoma bilan tanishib chiqib, shartnomaning barcha shartlarini to'liq xajmda qabul qilish to'g'risidagi arizani Bankning istalgan bank tarmoqlariga taqdim qilishi bilan tuzilgan hisoblanadi.

8.7. Mijoz tomonidan mazkur shartnoma talablari buzilgan taqdirda shartnoma bank tomonidan bir tomonlama bekor qilinadi va mijozning bank kartasiga xizmat ko'rsatish to'xtatiladi.

8.8. Agar ushbu oferta shartnomasida nazarda tutilgan xizmatlardan foydalangan holda shubhali operatsiyalarni amalga oshirish holatlari aniqlansa, Bank oferta shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni 30 kunga to'xtatib qo'yishga haqli.

8.9. Agar oferta shartnomasi xizmatlaridan jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilganligi to'g'risida asosli shubhalar mavjud bo'lsa, shartnoma bank tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

8.10. Bank O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq zarur hujjatlar va ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

9. Maxfiylik

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot foydalanuvchisining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3. Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so'ng 1 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma'lumotini olib qayta ishlagan holda tahlil o'tkazishga mijoz o'z roziligini beradi.

9.4. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

9.5. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq xajmda qoplaydi.

10. Nizolarning hal etilishi

10.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

10.2. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan taraf tarafidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

10.3. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali shuningdek BK foydalanuvchisi tomonidan taqdim qilingan telefon raqamiga xabarnoma yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.4. Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bank ofisi joylashgan xuddagi sud organlari orqali hal etiladi.

11. Bank rekvizitlari.

Bank
To'liq nomi: Chet el kapitali ishtrokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki
Qisqartirilgan nom: "Hamkorbank" ATB
Manzili: Andijon sh., Bobur shoh ko'chasi, 85
ish vaqti: 09:00 – 17:00
Aloqa markazi: 0 800 1 200 200 1256 (O'zbekiston bo'ylab pullik)
Ishonch telefoni: (0371) 150-91-22
Veb sayt: www.hamkorbank.uz
Elektron pochta: contact@hamkorbank.uz
STIR: 200242936